Suv va suv bug`i xossalarining jadvallari p-t makonning bazaviy nuqtalari uchun olingan tajriba ma`lumotlarini approksimasiyalash yo`li bilan olingan. 1 va 2-jadvallarda [1] to`yinish chizig`idagi suyuqlik va bug` solishtirma hajmlari, entalpiya va entropiyasi, hamda bug` hosil bo`lishi solishtirma issiqligining qiymatlari keltirilgan. Keltirilgan kattaliklar haroratga **[**1, 1-jadv.] hamda bosimga [1, 2-jadv.] bog`liq holda berilgan.

Suyuqliklar va ortiqcha qizdirilgan bug` uchun solishtirma hajmlar, entalpiya va entropiya qiymatlari haroratga bog`liq holda izobaralar bo`yicha 3-jadvalda berilgan [1].

Jadvallarda ichki energiya qiymati berilmagan, shu sababli ichki energiya formula bo`yicha hisoblab topiladi

$$u = i - p \cdot v, \qquad (1.55)$$

bu yerda i - entalpiya, kDj / kg;

p - bosim, kPa;

v - solishtirma hajm, m^3 / kg.

Suv va suv bug`ining tajribalar orqali topilgan xossalari oltita jadval ko`rinishida kltirilgan.

1-jadval. Suvning termodinamik xossalari i suv bug`ining to`yingan holatdagi (argument - harorat);

2-jadval. Suvning termodinamik xossalari i suv bug`ining to`yingan holatdagi (argument - bosim);

3-jadval. Suv va ortiqcha qizdirilgan bug`ning termodinamik xossalari;

4-jadval. Suv va suv bug`ining massasining haqiqiy izobarik issiqlik sig`imi;

5-jadval. Suv va suv bug`ining dinamik qovushqoqligi;

6-jadval. Suv va suv bug`ining issiqlik o`tkazuvchanligi.

Suv va suv bug`ining termodinamik xossalari jadvallarida keltirilgan ma`lumotlar asosida diagrammalar qurilgan bo`lib, ular suv, to`yingan nam suv bug`ining va ortiqcha qizigan bug` sohalarini yaqqol ko`rsatadilar. Bundan tashqari diagrammalar yordamida suv va suv bug`i holatining o`zgarish jarayonlarini tasvirlash va issiqlik - energetika uskunalari sikllarining muhandislik hisoblarini amalga oshirish mumkin.

Termodinamik hisob - kitoblarda eng ko`p qo`llanadigan suv va suv bug`ining koordinatalarda qurilgan diagrammalarini ko`rib chiqamiz: bosim - solishtirma hajm (p-v), mutlaq harorat - solishtirma entropiya (T-s) va solishtirma entalpiya - solishtirma entropiya (i-s). Fazaviy diagrammalar p,v -, T,s - va i,s - mos ravishda 1.6, 1.7 va 1.8-rasmlarda tasvirlangan.



1.6-rasm. Suv bug`ining fazaviy (p, v) - diagrammasi

Diagrammalarda kritik nuqta K quyidagi parametrlarga ega:

- kritik bosim r_{kr} = 22,129 MPa;

- kritik harorat t_{kr} = 374,16 °S;

- kritik solishtirma hajm v_{kr}, = 0,00326 m^3 / kg.

Bu nuqtada suvning suyuq va bug` holatidagi fazalari orasidagi farqlar yo`qoladilar.

Kritik nuqtada quyi chegaraviy nuqta KL va yuqori chegaraviy nuqta KD birlashadilar. CHegaraviy egri chiziqlar diagramma sohasini 3 qismga ajratib turadilar:

- KL egri chizig`idan chaproqda tomchili suyuqlik holatidagi suv joylashgan;

- KD egri chizig`idan o`ngroqda ortiqcha qizigan bug` sohasi joylashgan;

- KL va KD egri chiziqlari orasida to`yingan nam suv bug`i joylashadi (bor).

Quyi chegaraviy egri chiziqning barcha nuqtalarida suv to`yinish haroratida qaynash holatida bo`ladi, shu sababli KL chizig`ini shuningdek qaynayotgan suyuqlik egri chizig`i deb ham ataydilar.

YUqori chegara egri chiziqning barcha nuqtasida modda to`yingan quruq suv bug`i holatida bo`lib, shu sababli poetomu liniyu KD chizig`ini shuningdek quruq to`yingan bug` chizig`i ham deydilar.

CHegaraviy egri chiziqlardan yuqorida joylashgan soha u paytida suyuqlik va bug` o`rtasida yaqqol farq mavjud bo`lmagan suvning o`ta kritik holatini aks ettiradi.

Diagrammalarda izobaralar, izoxoralar, izotermalar, adiabatalar va quruqlik darajasining doimiysi chiziqlari tushirilgan. Moddaning qaynayotgan suyuqlik chizig`idagi quruqlik darajasi x = 0 bo`lganidagi parametrlari x = 0 «bitta shtrix» yuqori indeksi bilan belgilanadi. Masalan, v',s',i' va sh.k. To`yingan quruq suv bug`i chizig`ida modda parametrlari quruqlik darajasi x = 1 bo`lganida «ikki shtrix» yuqori indeksi bilan belgilanadi. Masalan, v'',s'',i'' va sh.k.

To`yingan nam suv bug`i parametrlari x quruqlik darajasiga to`g`ri proporsional bog`liqlik formulalari bo`yicha hisoblab topiladi. Masalan, to`yingan

nam bug`ining solishtirma hajmini hisob - kitob qilish uchun formula quyidagi ko`rinishga ega:

$$v_x = x \cdot v'' + (1 - x) \cdot v' \qquad (1.56)$$

yoki

$$v_x = v' + x \cdot (v'' - v'), \qquad (1.57)$$

bu yerda v' – x = 0 chizig`idagi qaynayotgan suyuqlik egri chizig`idagi solishtirma hajmning parametrlari, v - x = 1 chizig`idagi to`yingan quruq suv bug`ining solishtirma hajmi parametrlari.

Ortiqcha qizdirilgan bug` parametrlari va holati funksiyalari indekssiz ramzlar (simvollar) yordamida belgilaydilar. Masalan, v,s,i va sh.k.



1.7-rasm. Suv bug`ining fazaviy (T, s) – diagrammasi

Suvning fazaviy holatining o`zgarishini tahlil qilish uchun barcha uchta diagrammada (1.6-rasm, 1.7-rasm va 1.8-rasm) suvning izobarali isitilish jarayoni ABEVG tasvirlangan. AB uchastkasida suvning tomchili suyuqlik holatida shu bosim $t_n$ da to`yinish haroratiga qadar isishi yuz beradi. Egri chiziqning quyi chegarasida joylashgan V nuqtasida, suv to`yinish haroratida qaynaydi. BV uchastkasi – to`yingan nam suv bug`i uchastkasida – tomchili suyuqlikning (B n.) quruq to`yingan suv bug`ining holatiga (V n.) o`tishi ro`y beradi. V nuqtasi egri chiziqning yuqori chegarasida joylashadi. Bug` hosil bo`lish jarayoni doimiy to`yinish bosimida p_n va doimiy to`yinish haroratida $t_n$ ro`y beradi. Issiqlik kelib tushishda davom etganida suv bug`ining bu bosimda qizib ketishi – ya`ni VG jarayoni yuz beradi.



1.8-rasm. Suv bug`ining fazaviy (i, s) – diagrammasi

T,s - diagrammada AB egri chiziq ostidagi maydon suvni to`yinish holati $q_v$ ga qadar isitishga sarflanadigan issiqlikka teng. BV egri chizig`i ostidagi maydon fazaviy o`tish r issiqligigi teng. VG egri chizig`i ostidagi maydon q_{per} bug`ni ortiqcha isitishga sarflanadigan issiqlikka teng.

p,v - diagrammada LM izoterma t = 0 °S suvning deyarli siqilmasligi hisobiga bir vaqtning o`zida izoxora ham bo`lib keladi.

Fransuz muhandisi R. Mole tomonidan 1904 yilda taklif etilgan *i*,s - diagrammasi issiqlik energetika uskunalari sikllarini tahlil va hisob - kitob qilish uchun keng qo`llanadigan bo`ldi. *i*,s - diagrammaning ustun jihati izobarali jarayonda sarflanadigan, diagrammadagi ordinatalar farqiga teng bo`lgan issiqlik miqdorining hisob-kitob qilish qulayligida.

Suv bug`ining jarayonlarini hisob - kitob qilishda quyidagi harakatlar

bajariladi:

- suv va suv bug`ining boshlang`ich va so`nggi parametrlari topiladi;

- issiqlik miqdori va hajmning o`zgarish ishi hisoblab topiladi;

- T,s - va i,s - diagrammalarda masshtabsiz, ammo berilgan shartlarga muvofiq jarayonlar quriladi.

Suv va suv bug`ining parametrlari esa suv va suv bug`ining termodinamik xossalari jadvallari va i, s – diagrammasi bo`yicha aniqlanadi.

Suv bug`i holatining asosiy o`zgarish jarayonlarini hisob-kitob qilish formulalari 1.4-jadvalda keltirilgan.

1.4-jadval. Suv bug`i holati o`zgarish jarayonlarining hisobi

Jarayon	Q	ℓ
p = const	$q = i_2 - i_1$	$\ell = p \cdot (v_2 - v_1)$
v = const	$q = u_2 - u_1 = (i_2 - i_1) - -v \cdot (p_2 - p_1)$	$\ell = 0$
T = const	$q = T \cdot (s_2 - s_1)$	$\ell = q - \Delta u = q - (u_2 - u_1)$, $u_2 - u_1 = (i_2 - i_1) - - (p_2 \cdot v_2 - p_1 \cdot v_1)$
dq = const s = const	q = 0	$\ell = u_1 - u_2 = (i_1 - i_2) - - (p_1 \cdot v_1 - p_2 \cdot v_2)$

1.29-masala. 1,5 MPa bosimda to`yingan quruq suv bug`ining harorati, solishtirma hajmi, zichligi, entropiyasi, entalpiyasi aniqlansin.

Yechim: p = 1,5 MPa = $1,5 \cdot 10^6$ Pa [1, 2-jadv.] bo`lganida to`yingan quruq bug`ning parametrlari:

solishtirma hajm $v'' = 0,13170$ m^3 / kg;

entalpiya $i'' = 2791,0$ kDj / kg;

entropiya $s'' = 6,4431$ kDj / (kg · °K).

To`yingan quruq bug`ning harorati to`yinish haroratiga teng va 198,30 °S ni tashkil qiladi.

To`yingan quruq bug`ning zichligi

$P = 1 / v = 1 / 0,13170 = 7,633$ kg / m^3.

1.30-masala. Suvning fazaviy holati va uning p = 2,5 MPa i t = 120 °S bo`lganidagi parametrlari aniqlansin.

Yechim: p = 2,5 MPa bo`lganida suvning qaynash harorati t = $t_n$ = 223,96 °S. Shartga ko`ra t < t_n bo`lganligi sababli, bu holda suvning fazaviy holati – qaynashgacha isitilmagan suyuqlik. [1; 3-jadv.] ga binoan p = 2,5 MPa va t = 120 °S bo`lganida suv parametrlari:

v= 0,0010590 m^3 / kg;

i = 505,4 kDj / kg;

s = 1,5257 kDj / (kg · °K).

1.31-masala. 4 m^3 hajmli idishda 0,3 MPa bosimda 8 kg suv bug`i bor. Bug` parametrlari aniqlansin.

Yechim: Bug`ning solishtirma hajmi v = V / m = 0,5 m^3 / kg.

P = 0,3 MPa = 3 · 10^5 Pa bo`lganida suv va suv bug`ining termodinamik xossalari jadvallariga ko`ra [1; 2-jadv.]:

qaynayotgan suyuqlikning solishtirma hajmi v′ = 0,0010732 m^3 / kg,

to`yingan quruq bug`ning solishtirma hajmi v′ = 0,060579 m^3 / kg.

v = 0,5 m^3 / kg, ya`ni v′<v<v″ bo`lganligi sababli, suv bug`ining fazaviy holati – nam to`yingan par.

Quruqlik darajasi

$$x = \frac{v_x - v'}{v'' - v'} = \frac{0,5 - 0,0010732}{0,60579 - 0,0010732} = 0,825$$

p = 3 10^5 Pa bosimda [1, 2-jadv.] ga binoan:

i′ = 561,5 kDj / kg;

i″ = 2724,9 kDj / kg;

s′ = 1,6718 kDj / kg · °K;

s″ = 6,9916 kDj / kg · °K.

Bug` entalpiyasi

i_x = i′+ x · (i″ - i′) = 561,5 + 0,825 (2724,9-561,5) = 2346,3 kDj / kg.

Bug` entropiyasi

s_x = s′ + x · (s″ - s′)= 1,6718 + 0,825 · (6,9916-1,6718) = 6,06 kDj / kg °K.

p = 0,3 MPa bo`lganida to`yinish harorati t_n = 133,53 °S.

Javob: i_x = 2346,3 kDj / kg;

s_x = 6,06 kDj / kg;

t_n = 133,53 °S.

1.32-masala. P = 8 MPa va t = 410 °S bo`lganida suv bug`ining ichki energiyasi aniqlansin.

Yechim: P = 8 MPa bo`lganida to`yinish harorati t_n = 295,01 °S.

P = 8 MPa = 8 · 10^3 kPa va t = 410 °S bo`lganida qizib ketgan suv bug`ini [1, 3-jadv.] quyidagicha aniqlaymiz:

i = 3167 kDj / kg;

v = 0,03515 m^3 / kg.

Ichki energiya u = *i* - pv.

u = 3167 - 8 · 10^3 · 0,03515 = 2885,8 kDj / kg.

Javob: u = 2885,8 kDj / kg.

1.33-masala Harorati 120 °S bo`lgan 1 kg suv 5 MPa doimiy bosim bilan isitilib, 440 °S harorat bilan bug`ga aylantiriladi (o`tkaziladi). Suvni qaynashga qadar, bug` hosil qilish jarayoniga, bug`ni ortiqcha qizdirishga, jarayonning umumiy issiqligiga, bug`ning ortiqcha qizdirilish darajasiga va hajmni o`zgartirish ishiga sarflanadigan issiqliq miqdori, boshlang`ich va so`nggi parametrlar aniqlansin.

Yechim: P = 5 MPa = 5 10^6 Pa bo`lganida to`yinish harorati t_n = 263,94 °S ga teng. [1, 3-jadv.] ga binoan p_1 = 5 MPa va t_1 = 120 °S bo`lganida suvning boshlang`ich parametrlari:

i_1 = 507,2 kDj / kg; s_1 = 1,5235 kDj / kg °K; v_1 = 0,0010588 m^3 / kg.

$$u_1 = i_1 - p_1 \cdot v_1 = 507{,}2 - 5 \cdot 10^3 \cdot 0{,}0010588 = 501{,}906 \text{ kDj / kg}$$

$p_2 = p_1$ = 5 MPa va t_2 = 440 °S bo`lganida ortiqcha qizigan suv bug`ining so`nggi parametrlari:

i_2 = 3293,3 kDj / kg; s_2 = 6,7877 kDj / kg °K; v_2 = 0,06225 m^3 / kg.

$$u_2 = i_2 - p_2 \cdot v_2 = 3293{,}3 - 5 \cdot 10^3 \cdot 0{,}06225 = 2982{,}05 \text{ kDj / kg}$$

1 kg suvni 5 MPa doimiy bosimda t_1 = 120 °S suvdan t_2 = 440 °S ga ega bo`lgan ortiqcha qizigan bug`ga aylantirishga sarflanadigan issiqlik miqdori:

$$q_{1\text{-}2} = i_2 - i_1 = 3293{,}6 - 507{,}2 = 2786{,}1 \text{ kDj / kg.}$$

$P = 5 \cdot 10^6$ Pa bosimda:

qaynayotgan suyuqlik entalpiyasi $i' = 1154,4$ kDj / kg;

bug` hosil bo`lishining solishtirma issiqligi p = 1639,7 kDj / kg;

entalpiya to`yingan quruq bug`ning $i'' = 2794,2$ kDj / kg.

Quyidagilarga sarflanadigan issiqlik miqdori:

- suvni qaynashga qadar isitishga

$$q_v = i' - i_1 = 1154,5 - 507,2 = 653,3 \text{ kDj / kg};$$

- bug` hosil bo`lish jarayoniga

$$r = i'' - i' = 2794,2 - 1154,5 = 1639,7 \text{ kDj/kg};$$

- bug`ni qizdirishga

$$q_{per} = i_2 - i'' = 3293,3 - 2794,2 = 499,1 \text{ kDj / kg}.$$

Bug`ning ortiqcha qizish darajasiga

$\Delta t = t_2 - t_n = 440 - 263,94 = 176,06$ °S.

Hajmning o`zgarish ishiga

$\ell = p \cdot (v_2 - v_1) = 5 \cdot 10^3 \cdot (0,06225 - 0,0010588) = 306$ kDj / kg.

Javob: $q_{1-2} = 2786,1$ kDj / kg; $q_{per} = 499,1$ kDj / kg;

$q_v = 653,3$ kDj / kg; $\Delta t = 176,06$ °S;

$r = 1639,7$ kDj / kg; $\ell = 306$ kDj / kg.

1.34-masala. Bosimi 700 kPa va quruqlik darajasi 0,75 bo`lgan 1 m suv bug`ining massasi aniqlansin.

Javob: m = 4,9 kg.

1.35-masala. To`yingan quruq bug`ning 10 bar bosimdagi ichki energiyasi aniqlansin.

Javob: i = 2582,7 kDj / kg.

1.36-masala. Sig`imi $5 m^3$ bo`lgan idishda bosimi 150 bar va quruqlik darajasi 0,3 bo`lgan to`yingan nam bug` bor. Nam bug` massasi va qaynayotgan suv va to`yingan quruq bug` egallagan hajm aniqlansin.

Javob: m = 1,17 t; $V' = 1,36 m^3$; $V'' = 3,64 m^3$.

Zadacha 1.37. Boshlang`ich parametrlari $p_1 = 60$ bar va $t_1 = 430$ °S bo`lgan $0,2 m^3$ suv bug`i izobarali tarzda shunday siqiladiki, uning hjmi 5 marta kamayadi.

Ketkazilgan issiqlik miqdori aniqlansin. Jarayon p,v-, T,s- va *i*,s- diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: Q = - 6,36 MDj.

1.38-masala. 500 kPa bosimda va quruqlik darajasi 0,75 bo`lganida 2 kg suv bug`i izotermik ravishda 100 kPa bosimga qadar kengayadi. Keltirilgan issiqlik miqdori aniqlansin.

Javob: Q = 1,7 MDj.

1.39-masala. Doimiy harorat 300 °S bo`lganida 1 kg to`yingan quruq bug`dan 165 kDj issiqlik olib ketiladi. Jarayon tugashidagi entalpiya qiymati aniqlansin.

Javob: i = 2583,4 kDj / kg.

1.40-masala. 1 kg suv doimiy bosim 1 MPa va boshlang`ich harorat 100 °S bo`lganida 2100 kDj / kg issiqlik olib, so`ng adiabatali tarzda 0,1 MPa bosimga qadar kengayadi. Jarayonlar hisoblanib, p,v-, T,s- va i,s- diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: $\ell_{1\text{-}2}$ = 167,96 kDj / kg; $\ell_{2\text{-}3}$ = 308,22 kDj / kg;

$q_{1\text{-}2}$ = 2100 kDj / kg; $q_{2\text{-}3}$ = 0 kDj / kg;

$\Delta u_{1\text{-}2}$ = 1932,04 kDj / kg; $\Delta u_{2\text{-}3}$ = -308,22 kDj / kg.

1.41-masala. t_1 = 350 °S va p_1 = 8 bar bo`lgan suv bug`i doimiy hajmda sovutiladi. CHekli holatda i_2 = 2400 kDj / kg. Jarayon hisoblanib, u p,v-, T,s- va i,s- diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: q = Δu = - 632,2 kDj / kg; ℓ = 0;

Δs = -1,35 kDj / (kg · K); Δi = -760 kDj / kg.

1.5. Nam havo

Nam havo quruq havo va suv bug`ining aralashmasidan iborat.

Nam havo nam havodagi suv bug`ining fazaviy holatiga bog`liq holda to`yingan, to`yinmagan va o`ta to`yingan bo`lishi mumkin.

To`yinmagan nam havo deb quruq havo va ortiqcha qizdirilgan suv

bug`ining aralashmasiga aytiladi.

To`yingan nam havo deb quruq havo va quruq to`yingan bug` aralashmasiga aytiladi.

O`ta to`yingan nam havo deb quruq havo va to`yingan nam suv bug`ining aralashmasiga aytiladi.

Nam havo holati holati nam havodagi suv bug`ining parsial bosimi kattaligiga ko`ra aniqlanadi.

Suv bug`ining nam havodagi parsial bosimi kichik, shu sababli bug`ga, ayniqsa ortiqcha qizigan bug`ga nisbatan ideal gazlar qonunlari qo`llanishi mumkin.

Dalton qonuniga binoan, nam havo p bosimi quruq havo va suv bug`ining parsial bosimlari yig`indisiga teng:

$$p = p_{g.h.} + p_{s.b.}, \qquad (1.58)$$

bu yerda $p_{g.h.}$ - quruq havoning parsial bosimi;

$p_{s.b.}$ - suv bug`ining parsial bosimi.

Nam havoning asosiy tavsiflari:

- havoning mutlaq namligi (ρ) - 1 m^3 nam havodagi bug`ning yalpi miqdori;
- havoning nisbiy namligi (φ) – havo mutlaq namligining mumkin bo`lgan maksimal nam havo haroratiga nisbati:

–

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho_{max}} = \frac{\rho}{\rho''} = \frac{p_n}{p_н}, \qquad (1.58')$$

bu yerda ρ″ - nam havo haroratida quruq to`yingan bug`ning zichligi;

p_b - nam havo haroratida to`yingan suv bug`ining parsial bosimi;

shudring nuqtasi harorati – bug`ning parsial bosimida to`yinish holatiga erishiladigan harorat;

tarkibdagi namlik miqdori (d) – bug` massasining quruq havo massasiga nisbati:

$$d = \frac{G_n}{G_{q.h.}} = 622 \cdot \frac{p_n}{p - p_n}, \frac{g}{kg\ g \cdot h} \qquad (1.59)$$

- nam havo entalpiyasi (I) 1 kg quruq havoga nisbatan aniqlanib, 1 kg quruq havodagi mavjud komponentlar entalpiyasi yig`indisidan iborat:

$$I = c_p \cdot t + d \cdot i_b, \text{ kDj / kg g.h.}, \qquad (1.59')$$

bu yerda c_p - havoning izobarali yalpi issiqlik sig`imi (kDj / kg · K),

t – havo harorati,°S,

d – tarkibdagi namlik miqdori, g / kg g.h.,

i_b - suv bug`ining entalpiyasi, kDj / kg.

Nam havoning holatini tavsiflab keladigan kattaliklarni aniqlash uchun, suv va suv bug`ining termodinamik xossalarining jadvallari va nam havoning *I*,d - diagrammalari qo`llanadi.

Nam havoning I,d - diagrammasi 1.9-rasmda taqdim etilgan.

Diagramma qiya burchakli koordinatalar tizimida quriladi. Tarkibdagi namlik miqdori o`qi (d) va entalpiyalar (I) orasidagi burchak 135° ni tashkil etadi.

Havoning nisbiy namlik chizig`i φ = 100 % diagrammani 2 sohaga bo`lib turadi: chiziqdan yuqorida - to`yinmagan nam havo sohasi, chiziqdan pastda - o`ta to`yingan nam havo sohasi.

φ = 100 % egri chizig`i to`yingan nam havoga to`g`ri keladi.



1.9-rasm. R = 745 mm. sim. ust. bo`lganida nam atmosfera havosining I,d - diagrammasi

I,d - diagrammadagi izotermalar to`g`ri chiziqlardan iborat. Harorat ortishi bilan izotermalarning yotiqlik burchagi ham kattalashib boradi.

Diagrammada nam termometr izotermalari uzuq chiziq ko`rinishida tushirilgan. φ = 100% bo`lganida nam va quruq termometrlar haroratlari o`zaro teng $t_n = t_{g.h.}$.

Diagrammaning quyi qismida koordinatalarning to`g`riburchakli tizimida suv bug`i parsial bosimining havodagi namlik miqdoriga bog`liqligini tavsiflab keladigan chiziq berilgan.

1.42-masala. Nam havo 50 °S haroratda joylashgan. Barometrdagi bosim p

= 745 mm sim. ust. bo`lganida nam havodagi suv bug`ining parsial bosimi 37,5 mm sim. ust. Nam havo holati, shudring nuqtasi harorati, havoning mutlaq namligi, havoning nisbiy namligi, nam havo tarkibidagi namlik miqdori va uning entalpiyasi aniqlansin.

Yechim: Masalaning suv va suv bug`ining issiqlik-fizik xossalari jadvallaridan foydalangan holdagi yechilishini ko`rib chiqamiz [1].

Nam havo holati bug`ning parsial bosimiga $p_b$ = 37,5 mm sim. ust. To`yinish harorati to`g`ri keladi t_n = 32,88 °S [1, 2-jadv.].

Masala shartiga ko`ra nam havodagi suv bug`i harorati t = 50 °S, ya`ni to`yinish haroratidan baland, demak bug` o`ta qizigan bo`ladi.

Quruq havoning ortiqcha qizigan suv bug`i bilan aralashmasi to`yinmagan nam havo deb nomlanadi.

Shunday qilib, p_b = 37,5 mm sim. ust. va t = 50 °S bo`lganida nam havo to`yinmagan.

Shudring nuqtasi harorati

Suv bug`ining parsial bosimida uning to`yinish harorati 32,88 °S ga teng.

$$t_b = 32{,}88\ °S.$$

Havoning mutlaq namligi

$$\rho = \frac{1}{v},$$

bu yerda v – bug`ning solishtirma hajmi.

P_b = 37,5 mm sim. ust. bo`lganida = 0,05 bar va t = 50 °S [1, 3-jadv.]

$$v = 29{,}78\ m^3 / kg,$$

$$p = \frac{1}{v} = \frac{1}{29{,}78} = 0{,}0336\ \frac{kg}{m^3}.$$

Havoning nisbiy namligi

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho''} = \frac{p_n}{p_н}.$$

t = 50 °S bo`lganida [1, 1-jadv.]:

$v'' = 12{,}028\ m^3 / kg$; $p_n = 0{,}1235$ bar.

$$p'' = \frac{1}{v''} = \frac{1}{12{,}028} = 0{,}083\ \frac{kg}{m^3}.$$

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho''} = \frac{0{,}0336}{0{,}083} = 0{,}4048 = 40{,}48\%.$$

$$\varphi = \frac{p_n}{p_н} = \frac{0{,}05}{0{,}1235} = 0{,}4048 = 40{,}48\%.$$

1 kg quruq havodagi olingan namlik miqdori

$$d = \frac{622 \cdot p_n}{(B - p_n)} = \frac{622 \cdot 37{,}5}{745 - 37{,}5} = 32{,}97\frac{g}{kg\ g \cdot h}.$$

1 kg quruq havodagi nam havo entalpiyasi

$I = c_p \cdot t + d \cdot i_{pb}$; $c_p = 1$ kDj / (kg · K).

$p_b = 0{,}05$ bar va t = 50 °S [1, 3-jadv.] bo`lganida;

$i_b = 2593{,}4$ kDj / kg;

$I = 50 + 32{,}97 \cdot 10^{-3} \cdot 2593{,}4 = 135{,}5$ kDj / kg g.h.

Masalaning nam havoning I,d - diagrammasidan foydalanib yechilishini ko`rib chiqamiz (1.10-rasm).

10-rasmda strelkalar bilan I,d - diagramma bo`yicha berilgan parametrli A nuqtani aniqlash yo`li ko`rsatilgan: $p_b$ = 37,5 mm sim. ust. bo`lganida chiziqdan parsial bosimlar chizig`idan 50 °S izotermasi bilan kesishishga qadar vertikal chiziq o`tkazamiz.

Nam havo holati

A nuqta nisbiy namlik egri chizig`idan φ = 100% yuqoriroq joylashgan. Demak, nam havo - to`yinmagan.

Shudring nuqtasi harorati

Shudring nuqtasi haroratining qiymati A nuqtadan φ = 100 % chiziqqa

tushirilgan vertikalni kesib o`tishda izoterma bo`yicha aniqlanadi.

t_r = 32,88 °S.

Havoning mutlaq namligi

H*a*voning mutlaq namligi I,d - diagramma bo`yicha aniqlanmaydi.



1.10-rasm. Nam havo parametrlarini I,d - diagramma bo`yicha aniqlash

Havoning nisbiy namligi

A nuqta φ = 40 % va φ = 50 % egri chiziqlari orasida joylashgan. Grafik

interpolyasiya havoning nisbiy namligi qiymatini beradi φ_A = 40,48 %.

1 kg quruq havodagi namlik miqdori

Namlik miqdori ushbu nuqtada abssissalar o`qi bo`yicha aniqlanadi d_A = 32,97 g / kg g.h.

1 kg quruq havodagi nam havo entalpiyasi

Nam havo entalpiyasi qiymati ordinatalar o`qi bo`yicha aniqlanadi. A nuqta I = 130 kDj / kg g.h. va I = 140 kDj / kg g.h. chiziqlari orasida joylashadi. Grafik interpolyasiya I_A = 135,5 kDj / kg g.h. qiymatini beradi.

1.43-masala. Agar psixrometr bo`yicha quruq va nam termometrlar haroratlari teng, ya`ni t_s = 40 °S, t_m = 30 °S bo`lsa, havoning holati, uning nisbiy namligi, namlik miqdori, nam havo entalpiyasi, shuningdek nam havodagi suv bug`larining parsial bosimi aniqlansin. Barometrik bosim 745 mm sim. ust.

Yechim: I,d – diagramma bo`yicha bizga berilgan nam havo holatini aniqlaymiz (1.11-rasm).

Nisbiy namlik egri chizig`ida φ = 100 % nam termometr harorati $t_m$ = 30 °S ga to`g`ri keladigan nuqtani belgilaymiz. Nam termometr izotermasining (uzuq chiziq) quruq termometr t_s = 40 °S izotermasi bilan kesishish nuqtasini topamiz. Olingan V nuqta nam havo holatini aniqlab beradi.

V nuqtasi holati bo`yicha (1.42-masaladagi kabi):

nam havo holati - to`yinmagan nam havo;

φ_v = 40 %;

d_v = 13,7 g / kg g.h.;

I_v = 81,76 kDj / kg g.h.

Diagramma o`ng qismi ordinatalar o`qi bo`yicha, dastlab V nuqtadan parsial bosimlar chizig`iga qadar vertikal tushirib, suv bug`i parsial bosimi qiymatini topamiz.

p_b = 13,21 mm sim. ust.

1.44-masala. Nam havo barometrik bosim p = 745 mm sim. ust. bo`lganida 50 °S haroratga ega. Nam havodagi suv bug`ining parsial bosimi 45 mm sim. ust. ni tashkil qiladi. Nam havoning mutlaq va nisbiy namligi, namlik miqdori va

entalpiyasi aniqlansin.

Suv va suv bug`ining issiqlik - fizik xossalari jadvallari va nam havoning *I*,d - diagrammasidan foydalanib masalani yeching.

Javob: ρ = 0,04 kg / m^3; φ = 48,6 %; d = 40 g / kg g.h.;

I = 153,73 kDj / kg.



1.11-rasm. Nam havo parametrlarini I,d - diagramma bo`yicha aniqlash

1.45-masala. 40 °S haroratdagi mavjud nam havoning nisbiy namligi 50 % ga teng. Nam havodagi suv bug`larining namlik miqdori vlagosoderjanie, entalpiyasi, shudring nuqtasi harorati va parsial bosimi aniqlansin. Barometrik

bosim 750 mm sim. ust.

Javob: d = 23,9 g / kg g.h.; I = 101,5 kDj / kg;

p_b = 27,75 mm sim. ust.; t_r = 27,7 °S.

1.46-masala. Agar nam havo harorati 25 °S, shudring nuqtasi harorati esa 17,5 °S bo`lsa, havoning nisbiy namligi, entalpiyasi, havodagi namlik miqdori va nam havodagi suv bug`ining parsial bosimi aniqlansin. Barometrik bosim 750 mm sim. ust.

Javob: φ = 63,1 %; d = 12,72 g / kg g.h;

I = 57,4 kDj / kg;

p_b = 1,9986 kPa.

1.47-masala. Nam havoning holatini aniqlash uchun quruq termometri 40 °S ni, nam termometri esa – 30 °S ni ko`rsatayotgan psixrometr qo`llanadi. Nam havoning I,d - diagrammasidan foydalanib havoning mutlaq va nisbiy namligi, entalpiyasi, havodagi namlik miqdori, shudring nuqtasi va nam havodagi suv bug`larining parsial bosimi aniqlansin.

Javob: φ = 50 %; d = 23 g / kg g.h.;

I = 102 kDj / kg; p_b = 26 mm sim. ust.;

t_r = 27,3 °S.

1.48-masala. Nam havoning shudring nuqtasi harorati gigrometr bo`yicha aniqlangan bo`lib, 25 °S ni tashkil qiladi. Nam havo 40 °S haroratga ega. Havoning mutlaq va nisbiy namligi, undagi namlik miqdori, entalpiyasi va nam havodagi suv bug`larining parsial bosimi aniqlansin. Barometrik bosim 745 mm sim. ust.

Javob: ρ = 0,0221 kg / m^3; φ = 43,39 %;

d = 20,71 g / kg g.h.;

I = 93,33 kDj / kg; p_b = 3,2 kPa.

1.6. Bug`- kuch uskunasi (BKU) sikli
Bug`ni qizdirish bilan kechadigan Renkin sikli

Bug`-kuch uskunasida (BKU) ishchi jism holatini o`zgartirish bo`yicha yopiq jarayon sodir etadi. BKU ideal sikli ikkita izobara va ikkita adiabatadan

iborat. Ishchi jism quyi bosim sohasidan yuqori bosim sohasiga minimal solishtirma hajmda suyuqlik holatida o`tkaziladi. Issiqlik haydab keltirish va ketkazish jarayonlari p = const da yuz beradilar. Turbinadagi kengayish va nasosdagi bosim ko`tarilishi jarayonlari tez yuz bergani sababli ularni adiabatil deb hisoblash mumkin. Siklning minimal harorati kondensatordagi sovituvchi suvning haroratiga teng bo`lib, maksimal harorat esa po`latning issiqqa chidamliligi va mexanik mustahkamligi bilan cheklanadi.

Bug`-kuch uskunasining prinsipial sxemasi (BKU) 1.12-rasmda, p, v -, T,s -, va i,s - diagrammalardagi Renkin sikli esa 1.13-rasmda tasvirlangan. Diagrammalardagi nuqtalar bug`- kuch uskunasining sxemasidagi nuqtalarga muvofiq keladi.

Sikl quyidagi tarzda ro`y beradi. $p_0$ bosimli va $i_A = c \cdot t_{pv}$ (A n.) entalpiyali ta`minot suvi bug` qzoniga kelib tushib, bu yerda u qozonning suv ekonomay-zerida to`yinish haroratiga t_n (B n.) qadar qizdirilib, so`ng quruq to`yingan suv bug`iga (V n.) aylanadi va bug`ni ortiqcha qizdirgichida t_0 ga qadar ortiqcha qizdiriladi (G n.). issiqlikni ABVG ishchi jismiga keltirish jarayoni p_0 = const doimiy bosimda yuz beradi.



1.12-rasm. Bug`- kuch uskunasining prinsipial sxemasi:
VE – suv ekonomayzeri; PI – bug`lanish yuzasi; PP – bug` qayta isitgich; PG- bug` generatori; PT – bug` turbinasi; K - kondensator; N - nasos; EG - elektr generator

G nuqtasidagi bug` parametrlari bug` qizdirgichdan so`ng $p_0$, $t_0$, $i_0$ qiymatlarga ega bo`ladilar. Bug` qizdirgichdan bug` turbinaga kelib tushib, unda adiabatali tarzda kondensatordagi bosim r_k ga qadar kengayadi - GD jarayoni. D. nuqtadagi bug` parametrlari turbinadan so`ng p_k, t_k, i_k qiymatlariga ega bo`ladilar. Turbina ishi $\ell_t$ elektrogeneratorda elektr ishga aylanib, iste`molchilarga uzatiladi.

Kondensatorda bug` issiqlik $q_2$ ning sovutgichga o`tishi hisobiga kondensasiyalanadi. Bug`ning kondensatorda kondensasiyalanish jarayoni DE doimiy bosim $p_k$ va doimi harorat $t_k$ da ro`y beradi.

Tomchili suyuqlik (kondensat) kondensatordan so`ng minimal hajm $v'_k$ bilan nasos yordamida bug` qozoniga uzatilib, bunda ishchi jism bosimi p_k dan p_0 gacha o`zgaradi. Ta`minot suvi EA ning gacha adiabatali siqilish jarayoni bir vaqtning o`zida suvning kam siqiluvchanlik xususiyati tufayli izoxorali bo`lib ham hisoblanadi.



1.13-rasm. Bug`ni ortiqcha qizitish bilan kechadigan Renkin sikli

Muhandislik hisob-kitoblarida BKU siklining asosiy ko`rsatkichlarini i,s - diagrammadan foydalanib hisoblash (aniqlash) qulay. I,s - diagrammadan (1.13,v-rasm) foydalanib quyidagilarni osonlik bilan olish mumkin:

- ishchi jismga keltirilgan issiqlik miqdori

$$q_1 = i_G - i_A = i_0 - ct_{pv}; \qquad (1.60)$$

- kondensatordagi issiqlik tashlashi (teplovoy otbros)

$$q_2 = i_D - i_E = i_k - ct_k; \qquad (1.61)$$

- turbina ishi

$$\ell_t = i_g - i_d = i_o - i_k; \qquad (1.62)$$

- nasos ishi

$$\ell_n = i_A - i_E = ct_{pv} - ct_k = v'_k\,(p_o - p_k). \qquad (1.63)$$

q_1, ℓ_t va ℓ_n lar uchun ifodalarni hisobga olib, siklning termik FIK ini hisob - kitob qilish formulasi quyidagi ko`rinishga ega

$$\eta_t = \frac{\ell_т - \ell_н}{q_1} = \frac{i_0 - i_к - v'_к\left(p_0 - p_к\right)}{i_0 - st_{пв}}. \qquad (1.64)$$

Turbina ishi ℓ_t va siklning termik FIK ini η_t, lardan tashqari Renkin sikli samaradorligini tavsiflab keladigan ko`rsatkichlarga bug`ning solishtirma sarfi d_t va 1 kVt·s = 3600 kDj ishlab chiqish uchun zarur bo`lgan turbinaning elektr ishi issiqlikning solishtirma sarfi $q_t$ oid deb hisoblaydilar. Bug`ning solishtirma sarfi

$$d_t = \frac{1}{l_t}, \frac{kDj}{kg} \quad (1.65)$$

yoki 1 kDj = 1/3600 kVt·s nisbatini hisobga olib

$$d_t = \frac{3600}{l_t} = \frac{3600}{i_0 - i_k}, \frac{kg}{kVt \cdot s} \quad (1.66)$$

Solishtirma issiqlik sarfi formula bo`yicha hisoblab topiladi

$$d_t = \frac{q_1}{l_t} = q_1 . d_t = \frac{1}{\eta''_t}, \frac{kDj\ issiqlik}{kDj\ elektr\ ishi}, \quad (1.67)$$

yoki 1 kDj = 1/3600 kVt·s nisbatini hisobga olib

$$q_t = \frac{3600 \cdot q_1}{l_t} = \frac{3600}{\eta''_t}, \frac{kDj}{kVt \cdot s}, \quad (1.68)$$

bu yerda η''_t - termik FIK ini, nasos ishini hisobga olmaganda.

1.49-masala. BKU oddiy sikli quyidagi parametrlarga ega: turbina oldidagi bug` bosimi va harorati $p_0$ = 150 bar va $t_0$ = 530 °S, kondensatordagi bug` bosimi r_k = 0,045 bar. Siklning termik FIK ini, bug` va issiqlik ishlab chiqilgan kVt·s ga solishtirma sarflari aniqlansin.

Yechim: p_0 va t_0 qiymatlari bo`yicha [1; 3-jadv.] bug`ning qozondan chiqishdagi entalpiyasi va entropiyasini aniqlaymiz: i_0 = 3395,7 kDj / kg; s_0 = 6,4556 kDj / (kg · K).

Nasosdagi ta`minot suvining adiabatali siqilish jarayoni bir vaqtning o`zida izoxorali bo`lib ham keladi (1.14-rasm).

Nasosdagi suvning siqilish ishi

$$\ell_n = i_A - i_E = ct_{pv} - ct'_k = v'_k\ (p_0 - p_k),$$

bu yerda ct_{pv} – ta`minot suvining nasosda siqilganidan keyingi entalpiyasi;

ct'_k - p_k bosimda to`yingan holatdagi suv entalpiyasi ct'_k = 129,98 kDj / kg [1; 2-jadv.].

$$\ell_n = v'_k\ (p_0 - p_k) \cdot 100 = 0{,}0010047 \cdot (150 - 0{,}045) \cdot 100 =$$

$$= 15{,}066 \text{ kDj / kg;}$$

$$ct_{pv} = ct'_k + \ell_n = 129{,}98 + 15{,}066 = 145{,}046 \text{ kDj/kg.}$$



1.14-rasm. I,s - diagrammaga BKU sikli

P_o = 150 bar = 15 · 10^6 Pa bosimda [1; tabl. 2]:

- qaynayotgan suyuqlik entalpiyasi ct'_0 = 1610,2 kDj / kg;
- bug` hosil bo`lishining solishtirma issiqligi r = 1000,7 kDj / kg;
- to`yingan quruq bug`ning entalpiyasi i''_0 = 2610,9 kDj / kg.

Quyidagilarga sarflanadigan issiqlik miqdori:

- suvni qaynashga qadar isitishga

$$q_v = i_B - i_A = ct'_0 - ct_{pv} = 1610{,}2 - 145{,}046 = 1465{,}15 \text{ kDj / kg;}$$

- bug` hosil bo`lish jarayoniga

$$r = i_V - i_B = i''_0 - ct'_0 = 2610,9 – 1610,2 = 1000,7 \text{ kDj / kg};$$

- bug`ni o`ta qizdirishga

$$q_{per} = i_G – i_V = i_0 - i''_0 = 3395,7,4 - 2610,9 = 784,8 \text{ kDj / kg}.$$

Ishchi jismiga keltirilgan issiqlik miqdori

$$q_1 = i_G - i_A = i_0 - ct_{pv} = 3395,7 - 145,046 = 3250,65 \text{ kDj / kg}.$$

Kondensatordagi bug` bosimi $p_k = 0,045$ bar $= 4,5 \cdot 10^3$ Pa bo`lganida [1; 2-jadv.]:

- to`yingan holatdagi suv entalpiyasi

$$ct'_0 = 129,98 \text{ kDj / kg};$$

- to`yingan holatdagi suv entropiyasi

$$s'_k = 0,4507 \text{ kDj / (kg} \cdot \text{K)};$$

- to`yingan holatdagi suv bug`ining entalpiyasi

$$i''_0 = 2557,4 \text{ kDj / kg};$$

- suv bug`ining to`yingan holatdagi entropiyasi

$$s''_k = 8,4314 \text{ kDj / (kg} \cdot \text{K)}.$$

P_k va $s_k = s_0$ bo`lganida turbinadan chiqishdagi bug` parametrlari:

- bug`ning quruqlik darajasi

$$x_к = \frac{s_к - s'}{s'' - s'} = \frac{6,4556 - 0,4507}{8,4314 - 0,4507} = 0,7516$$

- bug` entalpiyasi

$i_k = ct'_k + x_k (i''_k - ct'_k) = 129,98 + 0,7516 (2557,4 – 129,98) = 1954,43$ kDj / kg.

Bug`ning turbinadagi adiabatali kengayishining texnik ishi

$$\ell_t = i_G – i_D = i_0 - i_k = 3395,7 - 1954,43 = 1441,27 \text{ kDj / kg.}$$

Kondensatordagi ishchi jismdan haydalgan issiqlik

$$q_2 = i_D – i_E = i_k - ct'_k = 1954,43 - 129,98 = 1824,45 \text{ kDj / kg.}$$

Siklning termik FIK ini

$$\eta_1 = \frac{\ell_т - \ell_н}{q_1} = \frac{1441,27 - 15,066}{3250,65} = 0,4387$$

Turbina tomonidan amalga oshirilgan 1 kVt·s ish hisobiga bug`ning solishtirma sarfi:

$$d_t = \frac{3600}{l_t} = \frac{3600}{1441,27} = 2,4978, \frac{kg}{kVt \cdot s}.$$

Turbina tomonidan amalga oshirilgan 1 kVt·s ish hisobiga issiqlikning solishtirma sarfi

$$q_1 = \frac{3600}{l_t} = \frac{3600 \cdot 3250{,}65}{1441{,}27} = 8119{,}464, \frac{kDj}{kVt \cdot s}.$$

Javob: η_t = 43,87 %; d_1 = 2,4978 kg / (kVt·s); q_1 = 8119,464 kDj / (kVt·s)

1.50-masala. Oddiy BKU sikli quyidagi parametrlarga ega: turbina oldidagi bug` bosimi va bug` harorati p_0 =110 bar, t_0 = 490 °S, kondensatordagi bug` bosimi p_k = 0,05 bar. Siklning termik FIK ini aniqlansin.

Javob: η_t = 42,074 %.

1.51-masala. Agar 1-masala shartlarida kondensatordagi bug` bosimi 120 bar ($p_0$ = 120 bar) gacha, masala shartlarida turbina oldidagi 1 bug` bosimi 120 bar (p_0 = 120 bar) gacha ko`tarilib, barcha qolgan shartlar o`zgarishsiz qolsa, siklning termik FIKi qanchaga o`zgarishi aniqlansin.

Javob: η_t = 42,329 % (0,255 % ga kattalashadi).

1.52-masala. Agar 1-masala shartlarida bug`ning turbina oldidagi harorati 520 °S ($t_0$ = 520 °S) deb olinsa, siklning termik FIK ini qanchaga o`zgarishi aniqlansin, barcha qolgan shartlar o`zgarishsiz qoladi.

Javob: η_t = 44,16 % (2,09 % ga kattalashadi).

1.53-masala. Agar 1-masala shartlarida kondensatordagi bug` bosimi 0,03 bar ($p_k$ = 0,03 bar) deb olinsa, siklning termik FIK ini qanchaga o`zgarishi aniqlansin, barcha qolgan shartlar o`zgarishsiz qoladi.

Javob: η_t = 43,258 % (1,184 % ga kattalashadi).

2-BOB. ISSIQLIK VA MASSA ALMASHINUVI ASOSLARI

2.1. Stasionar issiqlik uzatish jarayoni

YAssi devor orqali issiqlik uzatish

YAssi devor orqali issiqlik uzatilish hisob - kitobini issiqlik oqimining yuza zichligini qo`llagan holda bajarish qulay

$$q = \frac{Q}{F}, \qquad (2.1)$$

bu yerda Q - issiqlik oqimi, Vt;

F – devor maydoni, m^2.

Bu holda

$$q = \frac{\Delta T}{R_t}, \qquad (2.2)$$

bu yerda ΔT - issiqlik almashinuvining berilgan uchastkasida harorat farqi (ko`tarilib tushishi), K (°S), u issiqlik almashinuvining bitta yoki bir nechta qo`shni elementar uchastkalaridan tashkil topishi mumkin: issiqlik uzatish va issiqlik o`tkazuvchanlik;

R_t – ana shu uchastka yoki qo`shni uchastkalar birligining issiqlik almashinuvi termik qarshiligi, $(m^2 \cdot K) / Vt$.

Issiqlik uzatishning termik qarshiligi formula bo`yicha hisoblab topiladi

$$R_{t.\alpha} = \frac{1}{\alpha}, \qquad (2.3)$$

bu yerda α - issiqlik berish koeffitsienti, $Vt / (m^2 \cdot K)$.

YAssi devorning *i*-nchi qatlami orqali issiqlik o`tkazish termik qarshiligini hisob-kitob qilish uchun formula quyidagi ko`rinishga ega

$$R_{t.i} = \frac{\delta_i}{\lambda_i}, \qquad (2.4)$$

bu yerda δ_i - *i*-nchi qatlam qalinligi, m;

λ_i - ko`p qatlamli devor *i*-nchi qatlamining issiqlik o`tkazish koeffitsienti, Vt / (m · K).

Issiqlik uzatishning termik qarshiligi barcha issiqlik almashinuv elementar uchastkalarining termik qarshiliklari yig`indisiga teng.

Tavsiya etilgan yechish ketma - ketlgi:

a) barcha elementar uchastkalarning termik qarshiligi aniqlanadi;

b) issiqlik almashinuv tizimida ikkita berilgan harorat bo`yicha issiqlik oqimining zichligi topiladi;

c) q ning topilgan qiymati va ma`lum haroratlardan biri bo`yicha qatlamlar va suyuqliklarning qolgan noma`lum haroratlari hisoblab topiladi.

Silindrsimon devor orqali issiqlik uzatish

Silindrsimon shakldagi devor orqali issiqlik uzatilishini hisob - kitob qilish uchun issiqlik oqimining chiziqli zichligi deb ataladigan solishtirma issiqlik oqimidan foydalanadilar

$$q_\ell = \frac{Q}{\ell}, \qquad (2.5)$$

bu yerda Q - issiqlik oqimi, Vt;

ℓ - silindrsimon devor uzunligi, m.

$$q_\ell = \frac{\pi \cdot \Delta T}{R_\ell}, \qquad (2.6)$$

bu yerda ΔT - berilgan issiqlik almashinuv uchastkasida harorat ko`tarilib - tushishi, K ($^o$S), issiqlik almashinuvining qator elementar uchastkalaridan tashkil topishi mumkin bo`lgan: teplootdachi va teploprovodnosti;

R_ℓ - ana shu uchastka issiqlik almashinuvining chiziqli termik

qarshiligi, (m · K) / Vt.

Issiqlik uzatishning chiziqli termik qarshiligi formula bo`yicha hisoblab topiladi

$$R_{\ell,\alpha} = \frac{1}{\alpha \cdot d}, \qquad (2.7)$$

bu yerda α - issiqlik berish koeffitsienti, Vt / (m^2 · K);

d - silindrsimon devorning yuvilayotgan yuzasi diametri, m.

Silindrsimon devorning *i*-nchi qatlami issiqlik o`tkazuvchanligining chiziqli termik qarshiligi quyidagi formula bo`yicha hisoblab topiladi

$$R_{\ell,i} = \frac{1}{2 \cdot \lambda_i} \cdot \ln \frac{d_{i+1}}{d_i}, \qquad (2.8)$$

bu yerda λ_i - silindrsimon devor *i*-nchi qatlamining issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt / (m · K);

d_i va d_{i+1} - silindrsimon devor *i*-nchi qatlamining ichki va tashqi diametrlari, m.

Masalani silindrsimon devor orqali issiqlik uzatilishi orqali hal qilishning tavsiya etilgan tartibi yuqorida ko`rib chiqilgan yassi devor uchun yechim algoritmi bilan to`liq mos keladi.

2.1-masala. Agar uning yuzalari haroratlaridagi farq $\Delta T = T_{w2} - T_{w1} = 95$ °S bo`lganida u orqali issiqlik o`tkazuvchanlik bo`lgan stasionar issiqlik oqimi o`tsa, termik qarshiligi R_t va yassi bir qavatli devor qalinligi δ aniqlansin. Devorning issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti λ = 4 Vt / (m · K).

Yechim: Issiqlik oqimining bir qavatli devor orqali yuza zichligi $q = \Delta T/R_t$, bu yerda $R_t = \delta/\lambda$.

$R_t = \Delta T/q$ va $\delta = \lambda \cdot R_t$ larni aniqlaymiz.

Masala vazifasiga ko`ra q = 5 kVt / m^2 = 5000 Vt / m^2, shunda

$$R_t = \Delta T/q = 95/5000 = 0{,}019 \text{ (m}^2 \cdot \text{K) / Vt},$$

$$\delta = \lambda \cdot R_t = 4 \cdot 0{,}019 = 0{,}076 \text{ m}.$$

Javob: $R_t = 0,019$ $(m^2 \cdot K) / Vt$; $\delta = 0,076$ m.

2.2-masala. Issiqlik koeffitsienti $\lambda = 3$ Vt / (m · K), qalinligi $\delta = 90$ mm bo`lgan yassi devor yuza zichligi $q = 4$ kVt / $m^2$ bo`lgan stasionar issiqlik oqimini o`tkazadi. Devor issiqlikni qabul qiladigan yuzasining harorati $T_{w1} = 140$ °S. Devor issiqlik o`tkazuvchanligining termik qarshiligi R_t va issiqlik uzatuvchi (beruvchi) yuza harorati Tw_2 aniqlansin.

Yechim: Issiqlik oqimining yuza zichligi

$$q = \Delta T/R_t=(T_{w1} - T_{w2})/R_t,$$

bu yerda $R_t = \delta/\lambda = 0,09/3 = 0,03$ $(m^2 \cdot K) / Vt$.

$T_{w1} - T_{w2} = q \cdot R_t$, bundan kelib chiqib,

$$T_{w2} = T_{w1} - q \cdot R_t = 140 - 4000 \cdot 0,03 = 20 \text{ °S}.$$

Javob: $R_t = 0,03$ $(m^2 \cdot K) / Vt$; $T_{w2} = 20$ °S.

2.3-masala. YAssi devor qalinliklari $\delta_1 = 120$ mm, $\delta_2 = 90$ mm va $\delta_3 = 50$ mm bo`lgan uch qatlamdan iborat, qatlamlarning issiqlik o`tkazish koeffitsientlari mos ravishda quyidagilarga teng $\lambda_1 = 4$ Vt / (m · K), $\lambda_2 = 9$ Vt / (m · K) va $\lambda_3 = 12$ Vt/(m · K). Ikkinchi qatlam yuzalarining haroratlari $T_{1-2} = 125$ °S va $T_{2-3} = 50$ °S. Tashqi yuzalarning T_{w1} va T_{w2} haroratlari aniqlansin.

Yechim: Uch qatlamli devor issiqlik o`tkazuvchanligining to`liq termik qarshiligi qatlamlarning termik qarshiliklari summasiga teng:

$R_{t1} = \delta_1/\lambda_1 = 0,12/4 = 0,03$ $(m^2 \cdot K) / Vt$;

$R_{t2} = \delta_2/\lambda_2 = 0,09/9 = 0,01$ $(m^2 \cdot K) / Vt$;

$R_{t3} = \delta_3/\lambda_3 = 0,06/12 = 0,005$ $(m^2 \cdot K) / Vt$.

$R_t = R_{t1}+R_{t2}+R_{t3} = 0,03+0,01+0,005 = 0,045$ $(m^2 \cdot K) / Vt$.

Issiqlik almashinuvining stasionar rejimida issiqlik oqimining yuza usti zichligi har bir qatlam uchun doimiy bo`lib, istalgan qatlamning parametrlari orqali ifodalanadi

$$q = \frac{T_{w1} - T_{1-2}}{R_{t1}} = \frac{T_{1-2} - T_{2-3}}{R_{t2}} = \frac{T_{2-3} - T_{w2}}{R_{t3}};$$

$$q = \frac{T_{1-2} - T_{2-3}}{R_{t1}} = \frac{125 - 50}{0{,}01} = 7500 \text{ Vt / m}^2.$$

Devorlar tashqi yuzalarining izlanayotgan haroratlarini ifodalaymiz:

$$T_{w1} = T_{1-2} + q \cdot R_{t1} = 125 + 7500 \cdot 0{,}03 = 350 \text{ °S};$$

$$T_{w2} = T_{2-3} - q \cdot R_{t3} = 50 - 7500 \cdot 0{,}005 = 12{,}5 \text{ °S}.$$

q kattaligini shuningdek devorning umumiy termik qarshiligi orqali ifodalash mumkin

$$q = \frac{T_{w1} - T_{w2}}{R_{t1} + R_{t2} + R_{t3}} = \frac{T_{w1} - T_{w2}}{R_t}.$$

Bu ifodadan hisob-kitoblarning to`g`riligini tekshirish uchun foydalanish mumkin

$$q = (350 - 12{,}5)/0{,}045 = 7500 \text{ Vt/m}^2.$$

Javob: $T_{w1} = 350$ °S; = 12,5 °S.

2.4-masala. Qalinligi $\delta = 90$ mm bo`lgan, issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti $\lambda = 9$ Vt / (m · K) ga teng yassi, bir qavatli devor issiqlik uzatish jarayonida $T_{w1} = 125$ °S va $T_{w2} = 50$ °S haroratlariga ega. Agar issiqlik berish koeffitsientlari mos ravishda $\alpha_1 = 40$ Vt / (m^2 · K) va $\alpha_2 = 250$ Vt / (m^2 · K) ni tashkil qilsa, termik qarshiliklar, issiqlik uzatish koeffitsienti va devor yuzasini yuvadigan qaynoq va sovuq muhitlar haroratlari aniqlansin.

Yechim: YAssi bir qavatli devor orqali issiqlik uzatilishi jarayonining to`liq termik qarshiligi quyidagi qatlamlar termik qarshiligi summasiga teng:

- qaynoq suyuqlikdan devorga issiqlik uzatishga

$$R_{T,A1} = 1/A_1 = 1/40 = 0{,}025 \ (m^2 \cdot K) / Vt;$$

- devorning issiqlik o`tkazuvchanligiga

$$R_{t,\lambda} = \delta/\lambda = 0{,}09/9 = 0{,}01 \ (m^2 \cdot K) / Vt;$$

- devordan sovuq suyuqlikka issiqlik uzatilishiga

$$R_{T,A2} = 1/\alpha_2 = 1/250 = 0{,}004 \ (m^2 \cdot K) / Vt.$$

To`liq termik qarshilik

$$R_t = 1/\alpha_1 + \delta/\lambda + 1/\alpha_2 = 0{,}025 + 0{,}01 + 0{,}004 = 0{,}039 \ (m^2 \cdot K) / Vt.$$

Issiqlik uzatish koeffitsienti

$$k = 1/R_t = 1/0{,}039 = 25{,}64 \ Vt / (m^2 \cdot K)$$

Issiqlik oqimining stasionar issiqlik almashinuv rejimida yuza usti zichligi har bir uchastka (qatlam) uchun doimiy bo`lib, istalgan qatlam parametrlari orqali ifodalanadi.

Masalan

$$q = \frac{T_{f1} - T_{w1}}{R_{t,\alpha 1}} \quad \text{или} \quad q = \frac{T_{w2} - T_{f2}}{R_{t,\alpha 2}}.$$

Qaynoq va sovuq muhitlar haroratlarini aniqlaymiz:

$$T_{f1} = T_{w1} + q \cdot R_{t,\alpha 1} = 125 + 7500 \cdot 0{,}025 = 312{,}5\ ^\circ S;$$

$$T_{f2} = T_{w2} - q \cdot R_{t,\alpha 2} = 50 - 7500 \cdot 0{,}004 = 20\ ^\circ S.$$

Javob: k = 25,64 Vt/(m^2 · k); T_{f1} = 312,5 °S; T_{f2} = 20 °S.

2.5-masala. Agar truba ichidan o`rtacha harorati $T_{f1}$ = 120 °S bo`lgan suv oqib, atrofdagi havo harorati esa T_{f2} = – 10 °S bo`lsa, diametri $d_1/d_2$ = 150 mm / 170 mm ga teng, ochiq havodan o`tkazilgan 1 m izolyasiyalanmagan quvurdagi issiqlik yo`qotilishi hisoblab topilsin. Truba materialining issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti λ = 75 Vt / (m · K). Suvdan truba devoriga α_1 = 1000 Vt / (m^2 · K) va trubadan o`rab turgan havoga issiqlik berish koeffitsienti α_2 = 15 Vt / (m^2 · K). Shuningdek trubaning ichki va tashqi yuzasidagi haroratlar aniqlansin.

Yechim: Issiq suyuqlikdan devorga issiqlik uzatilishining termik qarshiligi

$$R_{t,\alpha 1} = 1/(d_1 \cdot \alpha_1) = 1/(0{,}15 \cdot 1000) = 0{,}00667\ (\text{m} \cdot \text{K}) / \text{Vt}.$$

Devor issiqlik o`tkazuvchanligining termik qarshiligi

$$R_{t,\lambda} = \frac{1}{2 \cdot \lambda} \cdot \ln \frac{d_2}{d_1} = \frac{1}{2 \cdot 75} \cdot \ln \frac{170}{150} = 0{,}000834 \quad (\text{m} \cdot \text{K}) / \text{Vt}.$$

Devordan havoga issiqlik uzatilishining termik qarshiligi

$$R_{t,\alpha 2} = 1/(d_2 \cdot \alpha_2) = 1/(0{,}170 \cdot 15) = 0{,}392157\ (\text{m} \cdot \text{K}) / \text{Vt}.$$

Issiqlik oqimining chiziqli zichligi

$$q_\ell = \frac{\pi \cdot (T_{f1} - T_{f2})}{R_{t,\alpha1} + R_{t,\lambda} + R_{t,\alpha2}} = \frac{3{,}14 \cdot [120 - (-10)]}{0{,}00667 + 0{,}000834 + 0{,}392157} = 1021{,}4\ Vt/m^2.$$

Trubaning ichki va tashqi yuzalaridagi haroratlar:

$$T_{w1} = T_{f1} - \frac{q\ell \cdot R_{t,\alpha1}}{\pi} = 120 - \frac{1021{,}4 \cdot 0{,}00667}{3{,}14} = 117{,}83\ °S;$$

$$T_{w2} = T_{f2} - \frac{q\ell \cdot R_{t,\alpha2}}{\pi} = -10 + \frac{1021{,}4 \cdot 0{,}392157}{3{,}14} = 117{,}56\ °S;$$

Javob: q_ℓ = 1021,4 Vt / m; T_{w1} = 117,83 °S; T_{w2} = 117,56 °S.

2.6-masala. Agar issiqlik o`tkazuvchanligi $R_\ell$ va devor qalinligi δ, ichki diametri $d_1$ = 8,5 mm bo`lgan po`lat trubaning yuzalari harorati orasidagi farq ΔT = 0,02 °S ga teng bo`lib, quvurning ℓ = 100 m li uchastkasidan atrof muhitga bir soat davomida Q_τ = 4,45 MDj issiqlik yo`qotilsa, uning chiziqli termik qarshiligi aniqlansin. Issiqlik almashinuv rejimi – stasionar. Truba materiali issiqlik o`tkazuvchanligi koeffitsienti λ = 16 Vt / (m · K).

Javob: $R_\ell = 5{,}081 \cdot 10^{-3}$ (m · K) / Vt; δ = 0,75 mm.

2.7-masala. Quritish kamerasi devorlari qalinligi δ_1 = 250 mm bo`lgan qizil g`isht qatlamidan va qurilish namati qatlamidan bajarilgan. G`isht qatlamining ichki yuzasidagi harorat $T_{w1}$ = 130 °S, namat qatlamining tashqi yuzasida esa $T_{w2}$ = 40 °S. Qizil g`ishtning issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti 0,7 Vt / (m · K) va qurilish namatining o`tkazuvchanlik koeffitsienti 0,0465 Vt / (m - K). Kameraning 1 m^2 devori orqali yo`qotiladigan issiqlik miqdori q = 130 Vt / $m^2$ ga teng bo`lishi sharti bilan qatlamlarning o`zaro tegib turadigan sathdagi $T_{1\text{-}2}$ harorat va namat qatlami qalinligi hisoblab topilsin.

Javob: $T_{1\text{-}2}$ = 83,5 °S; δ ≈ 15,6 mm.

2.8-masala. Agar qozon devorining qalinligi δ = 250 mm, gazlar harorati T_{f1} = 720 °S, qozonxonadagi havo harorati T_{f2} = 25 °S bo`lsa, bug` qozoni g`isht obmurovkasi yuzasi birligi orqali issiqlik yo`qotilishini va devor yuzasidagi harorat hisoblab topilsin,. Gazlardan devor yuzasiga issiqlik berish koeffitsienti α_1

= 23 Vt / (m^2 · K) va devordan havoga issiqlik uzatish koeffitsienti α_2 = 12 Vt / (m^2 · K). Devorning issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti λ = 0,7 Vt / (m · K).

Javob: q = 1436,25 Vt / m^2; T_{w1} = 657,6 °S i T_{w2} = 169,7 °S.

2.9-masala. Issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti $\lambda_1$ = 50 Vt / (m · K) bo`lgan d_1 /d_2 = 150 mm / 160 mm diametrli po`lat quvur usti bir xil qalinlikdagi $\delta_2 = \delta_3$ = 60 mm li ikki qavat izolyasiya bilan qoplangan. Truba ichki yuzasining harorati $T_{w1}$ = 250 °S va izolyasiya tashqi yuzasining harorati $T_{w2}$ = 50 °S. Agar truba yuzasiga yotqiziladigan izolyasiyaning birinchi qatlami issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti λ_2 = 0,06 Vt /(m · K), ikkinchi qatlami koeffitsienti esa λ_3 = 0,12 Vt / (m · K) bo`lgan materiallardan ishlangan bo`lsa, 1 m quvur izolyasiyasidan yo`qotiladigan issiqlik miqdori va izolyasiya qatlamlari tegib turadigan chegaradagi harorat aniqlansin.

Javob: q_ℓ = 102,2 Vt / m; $T_{2\text{-}3}$ = 98,22 °S.

2.10-masala. Agar izolyasiya qatlamlarining o`rni almashtirilsa, ya`ni kattaroq issiqlik o`tkazish koeffitsientiga ega bo`lgan qatlamni bevosita truba yuzasiga yotqizilsa, 1 m quvur yuzasidan yo`qotilgan issiqlik miqdori qanday o`zagaradi (4-masalaga qar.)? Barcha qolgan shartlar o`zgarishsiz qoldirilsin.

Javob: q_ℓ = 118,39 Vt / m; $T_{2\text{-}3}$ = 162,1 °S.

2.2. Konvektiv issiqlik almashinuvi

Issiqlik almashinuv qurilmalarini hisob - kitob qilishda va loyihalashtirishda flyuiddan devorga yoki, aksincha, devordan flyuidga konvektiv issiqlik uzatilishidagi issiqlik oqimini hisoblab topish talab etiladi. Bu holda issiqlik oqimi issiqlik uzatish (berish) qonuni - Nyuton qonuniga binoan topiladi:

$$Q = \alpha \cdot (T_w - T_f) \cdot F, \qquad (2.9)$$

bu yerda Q - issiqlik oqimi, Vt;

$\Delta T = |T_w - T_f|$ - devor va flyuid orasidagi haroratlar farqi moduli, °S (K);

T_w - issiqlik almashinuv yuzasi (devor) harorati, ^oS (K);

T_f - devordan uzoqda oquvchan muhit (flyuid) harorati, ^oS (K);

F - issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2; α - o`rtacha issiqlik berish koeffitsienti, Vt / ($m^2 \cdot K$).

Issiqlik almashinuv tizimining berilgan geometrik o`lchamlari, devor va oquvchan muhit haroratida issiqlik oqimini hisob - kitob qilish masalasi issiqlik uzatish koeffitsientini (α) aniqlashdan iborft bo`ladi.

Issiqlik uzatish koeffitsientining kattaligini ayniyat tenglamasini yoki ko`p sonli eksperimental ma`lumotlarga ishlov berish natijasida olinadigan kriterial tenglamani hal qilish yo`li bilan oladilar. Kriterial (mezoniy) tenglama shakli konveksiya turi (erkin yoki majburiy) va suyuqlikning harakatlanish rejimiga (laminar, o`tish yoki turbulent rejimlar) bog`liq.

Umumiy holda ayniyat tenglamasi yoki mezoniy (kriterial) tenglama quyidagi ko`rinishga ega

$$Nu = f(Gr,Re,Pr...), \qquad (2.10)$$

bu yerda Nu, Gr, Re, Pr – ayniyat mezonlari (kriteriylari).

Ayniyat mezoni (kriteriysi) – fizik kattaliklardan tashkil topgan o`lchamsiz kompleks, u fizik effektlarning nisbatini tavsiflab keladi.

Barcha ayniyat mezonlarini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: aniqlanadigan va aniqlaydigan. Noma`lum (izlanayotgan) kattaliklarga ega bo`lgan mezonlar aniqlanadigan mezonlar deb ataladi. Bir xil qiymatlilik shartlari bilan berilgan fizik kattaliklardan tuzilgan ayniyat (o`xshashlik) mezonlarini aniqlaydigan mezonlar deydilar. Aniqlanadigan mezonlar eksperimentdan topilsa, aniqlaydigan mezonlarga esa eksperiment natijalari bog`liq bo`ladi. Ayniyat tenglamasida aniqlanmish bo`lib Nusselt mezoni (kriteriysi) (Nu) kelsa, aniqlovchi mezonlar sifatida - Grasgof mezoni (kriteriysi) (Gr), Reynolds mezoni (Re) va Prandtl mezoni (kriteriysi) (Pr) keladi.

Nusselt mezoni (kriteriysi) issiqlik oqimining konvektiv issiqlik berish bilan

devor yaqinidagi oquvchan muhitning chegaraviy qatlamidagi konduktiv issiqlik oqimiga issiqlik berish nisbatini tavsiflab keladi

$$Nu = \frac{\alpha \cdot R_0}{\lambda}, \qquad (2.11)$$

bu yerda α - issiqlik berish koeffitsienti, Vt / (m^2 · K);

R_0 – belgilovchi (xarakterli) o`lcham, m;

λ – oquvchan muhitning issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt / (m · K).

Grasgof mezoni (kriteriysi) termogravitasion kuchning qayishqoq ishqalanish kuchiga nisbatini tavsiflab keladi

$$Gr = \frac{g \cdot R_0^3}{\nu^2} \beta \cdot \Delta, \qquad (2.12)$$

bu yerda g = 9,81 m/i^2 - erkin tushish tezlashishi;

ΔT – devor va flyuid orasidagi haroratlar farqi modeli, °S (K);

β – flyuidning hajmiy kengayish koeffitsienti, 1/K.

Tomchili suyuqliklarning hajmiy kengayish koeffitsienti spravochniklarda, masalan [2] da flyuid haroratiga bog`liq ravishda berilgan bo`lib, gazlar uchun uni quyidagi formula bo`yicha hisoblab topiladi

$$\beta = \frac{1}{T_0}, \qquad (2.13)$$

bu yerda T_0 – belgilovchi harorat (Kelvin shkalasi bo`yicha).

Reynolds mezoni inersiya kuchining ishqalanish kuchiga bo`lgan nisbatini tavsiflab keladi

$$\mathrm{Re} = \frac{w_0 \cdot R_0}{\nu}, \qquad (2.14)$$

bu yerda w_0 – belgilovchi yoki xarakterli tezlik, m/s;

R_0 - belgilovchi yoki xarakterli o`lcham, m;

ν – oquvchan muhit qovushqoqligining kinematik koeffitsienti, m^2 / i.

Re mezoni qiymatiga ko`ra flyuidning majburiy konveksiyadagi oqish rejimi to`g`risida fikr yuritadilar.

Prandtl mezoni molekulalar ko`chishining ikki tavsifi nisbatidan iborat: impuls ($\nu$) ko`chishi va issiqlik (a) ko`chishi.

$$P_r = \frac{\nu}{a}, \qquad (2.15)$$

bu yerda ν – oquvchan muhit qovushqoqligining kinematik koeffitsienti, m^2 / i;

a – flyuidning harorat o`tkazuvchanlik koeffitsienti, m^2 / i.

Harorat o`tkazuvchanlik koeffitsienti muhitning fizik parametri bo`lib, uning qiymati haroratga bog`liq holda ma`lumotnomalarda keltiriladi.

Funksional bog`liqlikning muayyan turi ayniyat tenglamalarida formula muallifi tomonidan beriladi. Aslini olganda, eksperiment ma`lumotlarini approksimasiyalash uchun har qanday polinominal bog`liqlikdan foydalanish mumkin.

Mahalliy adabiyotlarda, odatda, approksimasiyalovchi tenglamalar sifatida quyidagi ko`rinishli daraja funksiyalarini qo`llaydilar

$$\overline{Nu} = c \cdot Gr^k \cdot \mathrm{Re}^n \cdot \mathrm{Pr}^m \cdot \varepsilon_t \cdot \varepsilon_\ell, \qquad (2.16)$$

bu yerda c, n, m, k - empirik koeffitsientlar bo`lib, ular eksperiment ma`lumotlariga statistika ishlovi berish yo`li bilan topiladilar;

ε_t - flyuid fizik xossalarining haroratga bog`liqligini hisobga oladigan tuzatish;

ε_ℓ - muayyan ob`ekt geometriyasini hisobga oladigan tuzatish.

Modelni qurish va eksperiment natijalariga kriterial formulalar ko`rinishida ishlov berishda to`g`ridan-to`g`ri yoki bilvosita ayniyat mezonlariga kiradigan belgilovchi parametrlarni bilish talab etiladi. Konvektiv issiqlik almashinuvining

stasionar masalalarida belgilovchi parametrlarga quyidagilarni oid deb hisoblaydilar: belgilovchi o`lcham (R_0), belgilovchi harorat (T_0) va majburiy konveksiya masalalarida – belgilovchi tezlik (w_o).

Belgilovchi o`lcham (R_0) va belgilovchi harorat (T_0) formula muallifi tomonidan beriladi. Belgilovchi tezlik (w_o) esa uzviylik tenglamasidan topiladi

$$w_0 = G/(\rho \cdot f), \qquad (2.17)$$

bu yerda G - flyuid sarfi, kg / i;

ρ - zichligi, kg / m^3;

f – issiqlik tashuvchi o`tishi uchun ko`ndalang kesim maydoni, m^2.

Diqqat! Kriterial tenglamalarni qo`llashda belgilovchi parametrlar kriterial formulalarga berilgan sharhlarda ko`rsatilgan.

Issiqlik uzatish koeffitsientining hisob-kitobi uchun zarur kriterial tenglamalar [5-7] da keltirilgan.

Issiqlik uzatish koeffitsientining
kriterial (mezoniy) tenglamalar bo`yicha hisob - kitob algoritmi

1. Konvektiv issiqlik almashinuvining turi (erkin yoki majburiy konveksiya) va u ro`y berayotgan ob`ekt aniqlanadi. So`ng ma`lumot adabiyotlarida [5-7] ushbu konveksiya turiga oid kriterial (mezoniy) formulalarni topadilar.

2. Kriterial formulalarga berilgan sharhlarda bayon etilgan talablarga muvofiq, muayyan parametrlar topiladi:

- o`lcham;

- oquvchan muhitning fizik xossalari (ν, λ, Pr va h.k.) izlanadigan ma`lumot jadvallaridan [2] haroratni topadilar;

- quvurlar va kanallarda suyuqlik majburiy tarzda oqqanida yoki trubalar va kanalga jamlangan truba tutamlari tashqa tarafdan yuvilganida flyuidning belgilovchi tezligini uzluksizlik integral tenglamasidan kelib chiqib hisoblab topadilar.

3. Muhitning oqim rejimini aniqlaydilar:

- majburiy harakatda Reynolds kriteriysiga (mezoniga) (Re) ko`ra;

- erkin harakatda Releу (Ra) kriteriysiga (mezoniga) (Ra) ko`ra. Oquvchan muhitning harakatlanish rejimiga bog`liq ravishda kriterial (mezoniy) formulaga aniqlik kiritiladi.

4. Kriterial (mezoniy) tenglamaga ko`ra beo`lchov issiqlik berish koeffitsienti - Nusselt soni (Nu) topiladi.

5. Nusselt mezonini (kriteriysini) aniqlashdan foydalanib, konvektiv issiqlik uzatish koeffitsienti α hisoblab topiladi

$$\alpha = Nu\frac{\lambda}{R_0}. \qquad (2.18)$$

2.11-masala. Diametri d = 50 mm va uzunligi ℓ = 0,75 m li trubkadan bajarilgan isitgich T_f = 30 °S haroratli suv solingan bak ichiga vertikal tarzda joylangan. Uning yuzasi haroratini butun uzunligi bo`ylab doimiy va T_w = 45,5 °S ga teng deb hisoblab, isitgich vaqt birligi davomida uzatadilan issiqlik miqdori aniqlansin.

Yechim: Isitgich yuzasidagi va atrof muhitning berilgan harorat qiymatlarida masala yechimi va issiqlik uzatish koeffitsientini aniqlashga borib taqaladi. Vertikal yuza yaqinidagi erkin konveksiya jarayonini hisob-kitob qilish uchun M.A. Mixeev formulasini [7] qo`llaymiz. Unga ko`ra belgilovchi, hal qiluvchi harorat sifatida chegara qatlamning o`rtacha harorati olingan T_m = (45,5 + 30) · 0,5 = 37,75 °S.

Ushbu haroratga ko`ra suv quyidagi xossalarga ega bo`ladi [2]:

$$\lambda = 0{,}63 \text{ Vt / (m · K)}; \; c_p = 4187 \text{ Dj / (kg · K)}; \; v = 0{,}687 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2 \text{ / i};$$

$$\rho = 993{,}1 \text{ kg / m}^3 \; ; \; \beta = 0{,}36 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}; \; Pr_f = 4{,}52; \; Pr_w = 3{,}26.$$

Belgilovchi o`lcham sifatida isitgich uzunligi qabul qilinadi $R_0 = \ell$ = 0,75 m.

Grasgof mezoni (kriteriysi)

$$Gr = \left(\frac{g \cdot \ell^3}{\nu^2} \right) \cdot \beta \cdot \left(T_w - T_f \right) =$$

$$= \left[\frac{9{,}8 \cdot 0{,}75^3}{\left(0{,}687 \cdot 10^{-6}\right)^2} \right] \cdot 0{,}36 \cdot 10^{-3} \cdot \left(45{,}5 - 30\right) = 0{,}489 \cdot 10^{11}.$$

Ra = Gr · Pr = 0,489 · 10^{11} · 4,52 = 2,21 · 10^{11} > 2 · 10^7 bo`lganligi sababli, harakat rejimining turbulent va empirik koeffitsientlari quyidagi qiymatlarni oladilar:

c = 0,135; n = 0,33.

Nusselt mezoni

$$Nu = 0{,}135 \cdot (Gr \cdot Rg)^{0{,}33} = 0{,}135 \cdot (1{,}5 \cdot 10^{11})^{0{,}33} = 711{,}16.$$

Issiqlik berish koeffitsienti

$$\alpha = Nu \cdot \lambda / R_0 = 711{,}16 \cdot 0{,}63/0{,}75 = 597{,}37 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot \text{K})$$

Suvga vaqt birligi davomida uzatiladigan issiqlik miqdori

$$Q = \alpha \cdot (T_w - T_f) \cdot \pi \cdot d \cdot \ell = 597{,}37 \cdot (45{,}5 - 30) \cdot 3{,}14 \cdot 0{,}05 \cdot 0{,}75 =$$
$$= 1090{,}3 \text{ Vt}.$$

Javob: Q = 1090,3 Vt.

2.12-masala. d = 90 mm li truba bo`ylab w = 6 m/i tezlik bilan havo oqib o`tadi. Agar havoning o`rtacha harorati $\overline{T_f}$ = 100 °S bo`lsa, issiqlik berish koeffitsientining o`rtacha qiymati aniqlansin.

Yechim: Muayyan (aniq) harorat sifatida $T_0 = \overline{T_f}$ = 100 °S ni olamiz. Muayyan haroratda havo quyidagi xossalarga ega [2]:

λ = 0,0321 Vt / (m ·°S); ν = 23,13 · 10^{-6} m^2 / i.

Ma`lum o`lcham sifatida truba diametrini olamiz R_0 = d = 0,09 m.

Reynolds mezoni

$$\mathrm{Re} = \frac{w \cdot d}{v} = \frac{6 \bullet 0{,}009}{23{,}13 \bullet 10^{-6}} = 23346{,}3$$, Re > 10^4 bo`lgani uchun, bu holda oqim rejimi turbulent bo`ladi.

Nusselt mezoni [5-7]

$Nu = 0{,}018 \cdot Re^{0,8} = 0{,}018 \cdot 23346{,}3^{0,8} = 56{,}21.$

$$\alpha = Nu\frac{\lambda}{R_0} = 56{,}21\frac{0{,}0321}{0{,}09} = 20{,}05$$ Vt / ($m^2 \cdot K$).

Javob: α = 20,05 Vt / ($m^2 \cdot K$).

2.13-masala. d = 80 mm li va uzunligi ℓ = 4,4 m bo`lgan truba bo`ylab w = 1,2 m / i tezlik bilan suv oqmoqda. Agar suvning o`rtacha harorati $\overline{T_f}$ = 50 °S , devor harorati esa $T_w$ = 70 °S bo`lsa, issiqlik berish koeffitsientining o`rtacha qiymati aniqlansin.

Yechim: Asosiy (hal qiluvchi) harorat $\overline{T_f}$ = 50 °S bo`lganida suvning fizik xossalari quyidagicha: λ = 0,648 Vt / (m · K); v = 5,56 · $10^{-7}$ $m^2$ / s; $Pr_f$ = 3,54. $T_w$ = 70 °S bo`lganida suv uchun Prandtl mezoni Pr_w = 2,55.

Suyuqlik truba ichidan majburiy harakatlanishida Reynolds mezoni asosiy (belgilovchi) bo`lib hisoblanadi

$$R_e = \frac{w \cdot d}{v} = \frac{1{,}2 \cdot 0{,}08}{5{,}56 \cdot 10^{-7}} = 17{,}27 \cdot 10^4.$$

R_e=17,27·10^4 > R_e = 10^4 bo`lganligi sababli, bu holda oqim rejimi turbulent bo`ladi.

Bu holda mezoniy (kriterial) formula quyidagi ko`rinishga ega [5-7]

$$Nu = 0{,}021 \cdot \mathrm{Re}^{0,8} \cdot \mathrm{Pr}_f^{0,43} \cdot \varepsilon_t \cdot \varepsilon_\ell;$$
$$\varepsilon_t = \left(\mathrm{Pr}_f / \mathrm{Pr}_w\right)^{0,25} = \left(3{,}54 / 2{,}55\right)^{0,25} = 1{,}09;$$
$$Nu = 0{,}21 \cdot \left(17{,}27 \cdot 10^4\right)^{0,8} \cdot 3{,}54^{0,43} \cdot 1{,}09 = 610{,}26.$$

ℓ/d = 55 > 50 bo`lgani sababli, gidrodinamik stabilizasiyaning boshlang`ich uchastkasiga tuzatish $\varepsilon_\ell = 1$ ga teng.

Nusselt sonini bilib, issiqlik berish koeffitsientini topamiz

$$\alpha = Nu \cdot \frac{\lambda}{d} = \frac{610{,}26 \cdot 0{,}648}{0{,}08} = 4393{,}1 \text{ Vt / (m}^2 \cdot \text{K)}.$$

Javob: α = 4393,1 Vt / (m^2 · K).

2.14-masala. d = 20 mm diametrli va uzunligi ℓ = 1,2 m trubadan bajarilgan elektr isitgich, solishtirma elektr qarshiligi ρ_p = 0,2 (Om · mm^2)/m, u w = 0,75 m / i tezlikdagi ko`ndalang havo oqimi va harorat $T_f$ = 20 °S bilan shamollatiladi. Agar isitgich yuzasi harorati $T_w$ = 95 °S dan oshmasa, isitgichning havoga vaqt birligida uzatayotgan issiqlik miqdori va undagi yo`l qo`yiladigan tok kattaligi aniqlansin.

Yechim: T_f = 20 °S haroratda havo quyidagi fizik xossalarga ega bo`ladi [2]:

$$\nu = 15{,}06 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2 / \text{i}; \lambda = 0{,}0259 \text{ Vt / (m} \cdot \text{K)}; \mathrm{Pr}_f = 0{,}703.$$

Reynolds mezoni

$$\mathrm{Re} = w \cdot d/\nu = 0{,}75 \cdot 0{,}02/(15{,}06 \cdot 10^{-6}) = 996.$$

Re = 996 bo`lganida issiqlik uzatilish hisobini trubani ko`ndalang aylanib oqib o`tishda [5-7] tenglama bo`yicha amalga oshirish mumkin

$$\mathrm{Nu} = 0{,}52 \cdot \mathrm{Re}^{0,5} \cdot \mathrm{Pr}_f^{0,37} = 0{,}52 \cdot 99\,6^{0,5} \cdot 0{,}70\,3^{\,0,37} =$$
$$= 0{,}52 \cdot 31{,}56 \cdot 0{,}88 = 14{,}5.$$

Issiqlik berish koeffitsienti

$$\alpha = Nu \cdot \lambda/d_0 = 14,5 \cdot 0,0259/0,02 = 18,8 \text{ Vt} / (m^2 \cdot K).$$

Isitgichdan havoga uzatiladigan issiqlik miqdori

$$Q = \alpha \cdot (T_w - T_f) \cdot F = 18,8 \cdot (95 - 20) \cdot \pi \cdot 0,02 \cdot 1,2 = 106,26 \text{ Vt}.$$

Elektr toki isitgichdan o`tganida ajralib chiqqan issiqlik miqdorini atrofdagi havoga uzatilgan issiqlik miqdoriga tenglashtirib, tokning yo`l qo`yiladigan kattaligini topamiz

$$Q = I^2 \cdot R_{эл}; \quad I = \sqrt{Q / R_{эл}} = \sqrt{Q / \left[\rho_{п} \cdot \ell \cdot 4\left(\pi \cdot d^2\right)\right]} =$$
$$= \sqrt{106,26 / \left[\left(0,2 \cdot 1,2 \cdot 4\right) / \left(\pi 20^2\right)\right]} = 372,86 A.$$

Javob: Q = 106,26 Vt; I = 372,86 A.

2.15-masala. Korpusi silindrsimon shaklga ega bo`lgan va erkin havo oqimi bilan sovutiladigan gorizontal issiqlik almashtirgichning 1 $m^2$ yuzasidan konveksiya orqali yo`qotiladigan issiqlik miqdori hisoblab topilsin. Issiqlik almashtirgich korpusining tashqi diametri d = 400 mm, yuzasining harorati T_w = 160 °S, xonadagi havo harorati T_f = 20 °S.

Javob: α = 7,3 Vt / ($m^2 \cdot K$); q = 1025 Vt / m^2.

2.16-masala. 1-masala shartiga ko`ra kamroq issiqlik yo`qotish maqsadida issiqlik almashgich korpusi issiqlik izolyasiyasi qatlami bilan qoplangan. Agar qalinligi 50 mm li issiqlik izolyasiyasi qatlami yotqizilganidan so`ng izolyasiyaning tashqi yuzasidagi harorat $T_w$ endi 40 °S ga yetib, xonadagi harorat $T_f$ esa avvalgiday +20 °S qolgan bo`lsa, izolyasiyaning tashqi yuzasida issiqlik almashtirgich yuzasidan issiqlik yo`qotilishi q, Vt/m^2 topilsin.

Javob: q = 86 Vt / m^2.

2.17-masala. Agar plita yuzasi harorati T_w = 80 °S, yuzadan uzoqdagi atrof muhit harorati T_f = 20 °S ekanligi ma`lum bo`lsa, balandligi H = 1,5 m bo`lgan vertikal plitadan atrofidagi havoga issiqlik berish koeffitsienti aniqlansin.

Javob: α = 6 Vt / ($m^2 \cdot K$).

2.18-masala. Agar 3-masala shartlariga ko`ra plita balandligi 4 marta ko`tarilib, qolgan boshqa shartlar esa vertikal plitaning atrofdagi havoga issiqlik berish koeffitsienti qanday o`zgaradi?

Javob: $\alpha_1 / \alpha_2 = 1$.

2.19-masala. Tashqi diametri d = 16 mm bo`lgan trubka shaklidagi suvli kalorimetr havoning ko`ndalang oqimiga joylangan. Havo w = 3 m / i tezlik bilan kalorimetr o`qiga nisbatan 90° burchak ostida harakatlanib, o`rtacha $\overline{T_f}$ = 20 °S haroratga ega. Stasionar issiqlik rejimida kalorimetrning tashqi yuzasida quyidagi doimiy o`rtacha harorat $\overline{T_w}$ = 80 °S o`rnatiladi.

Trubkadan havoga issiqlik berish koeffitsienti va kalorimetr uzunligining birligiga issiqlik oqimi hisoblab topilsin.

Javob: α = 46,9 Vt / ($m^2 \cdot K$); q_ℓ = 141,37 Vt / m.

2.20-masala. Diametri d = 25 mm bo`lgan silindrsimon trubka ko`ndalang suv oqimi yordamida sovutiladi. Oqim tezligi w = 1 m / i. Suvning o`rtacha harorati $\overline{T_f}$ = 10 °S , trubka yuzasi harorati esa T_w = 60 °S. Trubka yuzasidan sovituvchi suvga issiqlik berish koeffitsienti aniqlansin.

Javob: α = 6807,7 Vt / ($m^2 \cdot K$).

2.21-masala. Bir tomoni a = 20 mm va uzunligi ℓ = 1400 mm bo`lgan kvadrat kesimli kanaldan w = 3,5 m / i tezlik bilan suv oqib o`tmoqda. Agar kanal uzunligi bo`yicha o`rtacha suv harorati $\overline{T_f}$ = 30 °S , kanal ichki yuzasining harorati T_w = 90 °S bo`lsa, kanal devoridan issiqlik berish koeffitsienti hisoblab topilsin.

Javob: α = 15493 Vt / ($m^2 \cdot K$).

2.22-masala. Agar kvadrat kesimli kanal teng tomonli uchburchak kesimli kanal bilan almashtirilsa, 7-masala shartiga binoan issiqlik berish koeffitsienti qanday o`zgaradi? Bunda kanalning ko`ndalang kesimi maydoni va suvning

harakatlanish tezligi o`zgarmay qoladi.

Javob: Issiqlik berish koeffitsienti 2,6 % ga kattalashadi.

2.3. Bug`lar kondensasiyalanib, suyuqliklar qaynashida konvektiv issiqlik almashinuvi

Flyuidning fazaviy holatiga bog`liq ravishda razlichayut v bir fazali muhitdagi konvektiv issiqlik almashinuvi va fazaviy o`zgarishlarda konvektiv issiqlik almashinuvini farqlaydilar. Moddaning agregat holati o`zgarishidagi (kondensasiyalanish va qaynashda) issiqlik almashinish jarayonini konvektiv issiqlik almashinuviga oid deb bilib, uni Nyuton issiqlik uzatish qonuniga binoan hisoblab topadilar

$$Q = \alpha \cdot \Delta T \cdot F, \qquad (2.19)$$

bu yerda α – kondensasiyalanish yoki qaynashda issiqlik berish (uzatish) koeffitsienti, Vt / ($m^2 \cdot K$);

F - issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2;

ΔT – flyuid va devor haroratlari o`rtasidagi farq (haroratdagi farqlanish), °S (K).

Kondensasiyalanish jarayoni $T_w < T_n$ sharti bilan ro`y berib, shu sababli kondensasiyalanishda haroratlar farqi quyidagiga teng

$$\Delta T = T_n - T_w. \qquad (2.20)$$

Qaynashda, aksincha, devor harorati ana shu bosimdagi to`yinish haroratiga nisbatan qizib ketishi lozim, bu holda

$$\Delta T = T_w - T_n. \qquad (2.21)$$

Modda agregat holatining o`zgarishi doimiy haroratda ro`y berib, fazaviy

o`tish solishtirma issiqligi r ning ajralib chiqishi (kondensasiyalanishda) yoki yutilishi (qaynashda) bilan tavsiflanadi, Dj / kg (suv uchun bug` hosil bo`lishining yashirin issiqligi) (2.1-rasmga qar.).

Fazaviy o`tish r solishtirma issiqligi qiymatini to`yingan quruq bug`ning to`yinish haroratiga yoki berilgan bosimiga ko`ra suv va suv bug`ining termodinamik xossalari [1,2,7] jadvallari (bosim p_n < 100 kPa dan past bo`lganida) yoki 2.1-jadvaldagi ma`lumotlardan foydalanib topish mumkin.

2.1-jadval. To`yinish harorati va bug` hosil bo`lishi issiqligining bosimga bog`liqligi

p, MPa	T_n, ^oS	r, kDj / kg	p, Mpa	T_n, ^oS	r, kDj / kg
0,00123	10	2477,4	0,00737	40	2406,5
0,00234	20	2453,8	0,01234	50	2382,5
0,00424	30	2430,2	0,1000	99,63	2258,2

Aytish lozimki, kondensasiya r da issiqlik berishning hisobiy formulalarini kilogrammga Joullarda (Dj / kg) qo`yish lozim



2.1-rasm. Suv bug`ining fazaviy T, s - diagrammasi

Stasionar kondensasiyalanish jarayonida yoki qaynashda fazaviy o`tishning issiqlik oqimi

$$Q = G \cdot r, \qquad (2.22)$$

bu yerda Q - kondensasiyalanishda bug`dan devorga yoki qaynashda devordan qaynayotgan suyuqlikka boradigan issiqlik oqimi, Vt; G - kondensat yoki bug` fazasi sarfi, kg/i; r – fazaviy o`tish solishtirma issiqligi, Dj / kg.

Moddaning fazaviy o`zgarishlarida issiqlik almashinuvining asosiy tenglamasi – issiqlik balansi (muvozanati) tenglamasi

$$Q = G \cdot r = \alpha \cdot \Delta T \cdot F. \qquad (2.23)$$

bu yerda G - kondensat yoki bug` fazasi sarfi, kg / i;

r – fazaviy o`tish solishtirma issiqligi, Dj / kg;

α – kondensasiyalanish yoki qaynashda issiqlik berish (uzatish) koeffitsienti, Vt / ($m^2 \cdot K$);

ΔT – flyuid va devor haroratlari o`rtasidagi farq (haroratdagi farqlanish), °S (K);

F - issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2.

Bug`lar kondensasiyalanishida issiqlik berilishi

Kondensasiya – bug`ning (gazning) suyuq yoki qattiq holatga o`tish jarayonidir (desublimasiya). Bug` kondensasiyalanganida fazaviy o`tish issiqligi (bug`lik hosil bo`lishining yashirin issiqligi) ajralib chiqib, shu sababli kondensasiya jarayoni issiqlik almashinuvi bilan uzviy bog`liq.

Vertikal yuzadagi bug`lar kondensasiyalanganida issiqlik uzatish koeffitsientining o`rtacha qiymati Nusselt formulasi bo`yicha hisoblab topiladi

$$\overline{\alpha} = 0{,}943 \cdot \sqrt[4]{\frac{g \cdot r \cdot \rho_{пл}^2 \cdot \lambda_{пл}^3}{\mu_{пл} \cdot (T_н - T_w) \cdot H}}, \qquad (2.24)$$

bu yerda g = 9,81 m / i^2 – erkin tushish tezlashishi;

r – bug` hosil bo`lishining yashirin issiqligi, Dj / kg;

λ_{pl} - kondensat plenkasining issiqlik o`tkazish koeffitsienti, Vt / (m · K);

μ_{pl} – kondensat qayishqoqligining dinamik koeffitsienti, Pa · i;

ρ_{pl} – plenka zichligi, kg / m^3;

H - vertikal yuza balandligi, m;

T_n - t o`yinish harorati, °S (K);

T_w – issiqlik almashinuv yuzasi (devor) harorati, °S (K).

Qiya yuzada kondensasiyalanishdagi o`rtacha issiqlik berish koeffitsienti quyidagi formula bo`yicha hisoblab topiladi

$$\overline{\alpha}_{накл} = \overline{\alpha}_{вертик} \cdot \sqrt[4]{\cos\varphi}, \qquad (2.25)$$

bu yerda $\overline{\alpha}_{вертик}$ - vertikal yuza uchun issiqlik berish koeffitsienti;

φ - og`irlik kuchi va o`q yo`nalishi orasidagi, issiqlik almashinuvi yuzasi bo`ylab yo`naltirilgan burchak.

Gorizontal trubada plenkali kondensasiyalanishda o`rtacha issiqlik berish koeffitsienti laminar oqimda kondensat plenkalari Nusselt formulasiga binoan hisoblab topilib, u ushbu holda quyidagicha ko`rinishga ega bo`ladi

$$\overline{\alpha} = 0{,}728 \cdot \sqrt[4]{\frac{g \cdot r \cdot \rho_{пл}^2 \cdot \lambda_{пл}^3}{\mu_{пл} \cdot (T_н - T_w) \cdot d_{тр}}}, \qquad (2.26)$$

bu yerda g = 9,81 m / i^2 – erkin tushish tezlashishi;

r – bug` hosil bo`lishining yashirin issiqligi, Dj / kg;

λ_{pl} - kondensat plenkasining issiqlik o`tkazish koeffitsienti, Vt / (m · K);

μ_{pl} – kondensat qayishqoqligining dinamik koeffitsienti, Pa · i;

ρ_{pl} – plenka zichligi, kg / m^3;

T_n - t o`yinish harorati, °S (K);

T_w – issiqlik almashinuv yuzasi (devor) harorati, °S (K);

d_{tr} - trubaning tashqi diametri, m.

Ushbu formula quyidagi shart bajarilganida plenkaning laminar oqish rejimi

uchun to`g`ri keladi

$$d_{тр} < 20 \cdot \left(\frac{\sigma_{пл}}{g \cdot \rho_{тр}} \right)^{0,5}, \qquad (2.27)$$

bu yerda σ_{pl} – plenka yuzasining taranglik kuchi, N / m;

ρ_{pl} – plenka zichligi, kg / m^3.

Diqqat! Suyuq plenkaning fizik xossalari spravochnikdan [2] ushbu bosimdagi to`yinish haroratiga ko`ra topiladi.

Plenkaning issiqlik berishning lokal koeffitsientlari, to`lqinli va turbulent oqimidagi issiqlik berish koeffitsientini, shuningdek kondensat plenkasining qalinligini hisoblab topish uchun formulalar [5-7] da keltirilgan.

Suyuqliklar qaynashida issiqlik uzatilishi

Qaynash – to`yinish harorati yoki undan yuqori haroratda suyuqlik hajmi ichida intensiv (jadal) bug` hosil bo`lish jarayonidir.

Qaynashda fazaviy o`tish issqligi yutilib, shuning uchun stasionar qaynash jarayonini amalga oshirish uchun issiqlik keltirish talab etiladi.

Katta hajmda pufakli va plenkali qaynashda issiqlik uzatilishi hisob-kitobi formulalarini keltiramiz.

Suvning katta hajmda qaynashida issiqlik berilishini hisob-kitob qilish maqsadida quyidagi formulalardan foydalanadilar:

$$\alpha = 38,7 \cdot \Delta T^{2,33} \cdot p_н^{0,5}, \qquad (2.28)$$

$$\alpha = 3,0 \cdot q^{0,7} \cdot p_н^{0,15}. \qquad (2.29)$$

(2.28) formulani pufakli qaynashga oid birinchi turdagi chekli sharoitlar hisob-kitob qilishda qo`llaydilar. Bu holda rostlanadigan (berilgan) kattalik bo`lib devor harorati keladi va bundan kelib chiqib, suyuqlikning qizib ketishi ($\Delta T = T_w$ -

T_n), formulani (2.29) esa ikkinchi turdagi chekli sharoitlardagi qaynash hisob-kitoblarida ishlatadilar (berilgan kattalik – devor yuzasidagi issiqlik oqimining zichligi (q)). (2.29) formula bo`yicha α ni aniqlab, devorning qizib ketganligi (chegaraviy qatlamdagi suyuqlik) va devor haroratini osonlik bilan topish mumkin.

$$\Delta T = q/\alpha \Rightarrow T_w = T_i + q/\alpha. \qquad (2.30)$$

2.23-masala. Diametri d = 40 mm va uzunligi ℓ = 3 m bo`lgan gorizontal truba tashqi yuzasida $p_n = 1{,}013 \cdot 10^5$ Pa bosimda quruq to`yingan suv bug`i kondensasiyalanadi. Truba yuzasi harorati $T_w$ = 95,5 °S. Bug`dan trubaga o`rtacha issiqlik berish koeffitsienti va truba yuzasida kondensasiyalanadigan bug` miqdori G aniqlansin.

Yechim: To`yingan quruq bug`ni gorizontal trubada plenkali kondensasiyalashda o`rtacha issiqlik berish koeffitsientini mojno quyidagi formula bo`yicha aniqlash mumkin

$$\alpha = 0{,}728 \cdot \sqrt[4]{\frac{g \cdot r \cdot \rho_{пл}^2 \cdot \lambda_{пл}^3}{\mu_{пл} \cdot (T_н - T_w) \cdot d_{тр}}},$$

u plenkaning laminar oqimi uchun to`g`ri keladi.

$p_n = 1{,}013 \cdot 10^5$ Pa [1, 2] bo`lganida T_n = 100 °S.

To`yinish harorati $T_n$ = 100 °S bo`lganida kondensatning fizik xossalari:

$$\rho_{pl} = 958{,}4\ \frac{kg}{m^3}; \qquad \lambda_{pl} = 68{,}3 \cdot 10^{-2}\ \frac{Vt}{m \cdot °S};$$
$$\mu_{pl} = 282{,}5 \cdot 10^{-6}\ Pa \cdot i;$$
$$r = 2256{,}8\ \frac{kDj}{kg}; \qquad \sigma_{pl} = 588{,}6 \cdot 10^{-4}\ \frac{N}{m}.$$

Laminar plenkali oqish rejimi sharti

$$d < 20 \cdot \left(\frac{\sigma_{pl}}{g \cdot \rho_{tr}}\right) = 20 \cdot \left(\frac{588{,}6 \cdot 10^{-4}}{9{,}8 \cdot 958{,}4}\right)^{0{,}5} = 0{,}050\, m = 50\, mm,$$

d_{tr} = 20 mm < 50 mm, bundan kelib chiqib, plenkaning oqish rejimi laminar rejim bo`ladi.

Issiqlik berish koeffitsienti

$$\alpha = 0{,}728 \cdot \sqrt[4]{\frac{9{,}8 \cdot 2256{,}8 \cdot 10^3 \cdot (68{,}3 \cdot 10^{-2})^3}{282{,}5 \cdot 10^{-6} \cdot (100 - 95{,}5) \cdot 0{,}04}} = 13751{,}5\ \frac{Vt}{m^2 \cdot \mathrm{K}}.$$

Issiqlik muvozanati tenglamasidan hosil bo`ladigan kondensat miqdorini aniqlaymiz:

G · r = α · ΔT · F;

$$G = \frac{\alpha \cdot \Delta T}{t} \cdot \pi \cdot d \cdot \ell = \frac{13751{,}5 \cdot (100 - 95{,}5)}{2256{,}8 \cdot 10^3} \cdot 3{,}14 \cdot 0{,}04 \cdot 3 =$$

$$= 10{,}33 \cdot 10^{-3}\ \frac{kg}{i}.$$

Javob: $\alpha = 13751{,}5\ \frac{Vt}{m^2 \cdot \mathrm{K}}$; $G = 10{,}33 \cdot 10^{-3}\ \frac{kg}{i}$.

2.24-masala. Katta hajmda pufakchali qaynash rejimida issiqlik berish koeffitsienti va qizish yuzasi harorati aniqlansin. Suv bosimi 2 MPa, issiqlik oqimi zichligi esa q = 0,8 MVt / m^2.

Yechim: Suvning pufakchalar bilan qaynashida issiqlik uzatish koeffitsienti

$$\alpha = 3{,}0 \cdot q^{0{,}7} \cdot p_n^{0{,}15}$$

p_n = 2 MPa = 2 · 10^6 Pa = 20 bar; T_n = 179,88 °S;

$\alpha = 3{,}0 \cdot (0{,}8 \cdot 10^6)^{0{,}7} \cdot 20^{0{,}15}$ = 63743,9 Vt / (m^2 · K).

Qizish (isish) yuzasi haroratini quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin

$$q = \alpha \cdot \Delta T = \alpha \cdot (T_w - T_n);$$

$$\Delta T = \frac{q}{\alpha} = \frac{8 \cdot 10^5}{63743{,}9} = 12{,}55° \text{ S};$$

$$T_w = T_n + \Delta T = 179{,}88 + 12{,}55 = 192{,}43 \text{ °S}.$$

Javob: α = 63743,9Vt / (m^2 · K); T_w = 192,43 °S.

2.25-masala. 40 mm diametrli gorizontal trubada 0,27 MPa bosimda suv plenkali qaynashi yuz bermoqda. YUza harorati 160 °S. Devordan suvga issiqlik berish koeffitsienti hisoblab topilsin.

Yechim: Issiqlik berish koeffitsientini quyidagi formula bo`yicha hisoblab topamiz

$$\alpha = 0{,}728 \cdot \sqrt[4]{\frac{g \cdot r \cdot \rho'' \cdot (\rho' - \rho'') \cdot \lambda_{пл}^3}{\mu_{пл} \cdot \Delta T \cdot d}}.$$

Hal qiluvchi harorat $T_0 = T_n$ = 130 °S.

Suv bug`ining ana shu haroratdagi va 0,27 MPa bosimdagi fizik xossalari [2]:

r = 2174,3 kDj / kg; ρ″ = 1,496 kg / m^3; μ_p = 13,24 · 10^{-6} Pa · i;

λ_{pl} = 2,686 · 10^{-2} Vt / (m · K); ρ′ = 934,8 kg / m^3.

$$\alpha = 0{,}728 \cdot \sqrt[4]{\frac{9{,}8 \cdot 2174{,}3 \cdot 10^3 \cdot 1{,}496 \cdot (934{,}8 - 1{,}496) \cdot (2{,}686 \cdot 10^{-2})^3}{13{,}24 \cdot 10^{-6} \cdot (160 - 130) \cdot 0{,}04}} =$$

$$= 436{,}4 \ \ Vt/(m^2 \cdot \text{K}).$$

Javob: α = 436,4 Vt / (m^2 · K).

2.26-masala. Bug` bosimi $p_n$ = 1,98 · 10$^5$ Pa, barcha qolgan ma`lumotlar esa o`zgarishsiz qolishi sharti bilan 2.23-masalani yeching. Hisob-kitob natijalarini 1-masala javobi bilan solishtiring.

Javob: α = 10950 Vt / (m^2 · K); G = 0,0158 kg / i.

2.27-masala. Agar truba diametri 3 martaga kattalashtirilib, biroq bug` bosimi, dam, oqim kuchi (napor) harorati va truba uzunligini o`zgartirmay qoldirilsa, issiqlik berish koeffitsienti va gorizontal truba yuzasida vaqt birligi

davomida kondensasiyalanayotgan to`yingan quruq suv bug`i miqdori qanchaga o`zgaradi?

Javob: Issiqlik berish koeffitsienti 1,316 marta kichrayadi; vaqt birligi davomida kondensasiyalanadigan bug` miqdori 2,28 martaga ko`payadi.

2.28-masala 20 mm diametrli va balandligi H = 2 m vertikal trubaning tashqi yuzasida $p_n = 1{,}98 \cdot 10^5$ Pa bosimda to`yingan quruq suv bug`i kondensasiyalanadi. Truba yuzasi harorati $T_w = 115$ °S.

Balandligiga ko`ra bug`dan trubaga o`rtacha issiqlik berish koeffitsienti va truba yuzasida kondensasiyalanadigan bug` miqdori, G, kg / s, aniqlansin.

Javob: $\alpha = 6740$ Vt / (m$^2 \cdot$ K); G = 7 kg / s.

2.29-masala. Gorizontal kondensatorda $p = 1{,}013 \cdot 10^5$ Pa bosimda 0,278 kg/i to`yingan quruq suv bug`ini kondensasiyalash talab etiladi. Kondensatorning tashqi diametri d = 0,03 m va uzunligi ℓ = 3,5 m bo`lgan trubalari soni aniqlansin. Trubalar devori harorat stenki trub $T_w = 80$ °S.

Javob: n = 10 dona (sht).

2.30-masala. Diametri d = 0,034 m bo`lgan gorizontal truba yuzasida plenkaning laminar oqimida agar issiqlik oqimining zichligi $q = 5{,}8 \cdot 10^4$ Vt / m$^2$. Bug` bosimi $p_n = 1{,}013$ bar bo`lsa, plenkali kondensasiyada to`yingan quruq suv bug`i damining qanday haroratini ta`minlash kerak?

Javob: $\Delta T = 3{,}9$ °S.

2.31-masala. Katta hajmdagi suv yuzasining harorati 200 °S bo`lgan bug`latgich trubkalarida qaynamoqda. Suv bosimi 1,255 MPa ga teng. Trubalarning tashqi diametri 40 mm, uzunligi 1,5 m, trubalar soni 30 dona. Pufakchali qaynashdagi issiqlik berish koeffitsienti va trubalardan suvga boradigan issiqlik oqimi topilsin.

Javob: $\alpha = 29306$ Vt / (m$^2 \cdot$ k); Q = 1,66 MVt.

2.32-masala. Katta hajmda 1,98 bar bosim ostida qaynayotgan suvdan 300 kg/s to`yingan quruq suv bug`i olish lozim. Agar yuza harorati 131 °S bo`lsa, buning uchun talab etilgan qizish yuzasi maydoni aniqlansin.

Javob: F = 1,15 m^2.

2.33-masala. Issiqlik oqimining suvning plenkali qaynashida 3,61 bar bosimda tashqi diametri 30 mm va uzunligi 0,48 m bo`lgan vertikal truba yuzasidagi zichligi aniqlansin. YUza harorati 155 °S. Agar truba gorizontal joylashtirilsa, issiqlik berish koeffitsienti qanchaga o`zgardi?

Javob: q = 4297 Vt / m^2; issiqlik berish koeffitsienti 2 barobar kattalashadi.

2.4. Nurlanish orqali issiqlik almashinishi

Issiqlik nurlanishi (radiasion issiqlik almashinuvi) – makonda issiqlik tashish, ko`chirish usuli bo`lib, u energiyasi modda bilan o`zaro ta`sir oqibatida issiqlikka o`tadigan elektromagnit to`lqinlar tarqalishi natijasida amalga oshiriladi. Radiasion issiqlik almashinuvi energiyaning ikki marta o`zgarishi bilan bog`liq: dastlab jismning ichki energiyasi elektromagnit nurlanish energiyasiga aylanadi, shundan so`ng, energiya makonda elektromagnit to`lqinlarit yordamida ko`chirilganidan keyin, nurli energiyaning boshqa jism ichki energiyasiga ikkinchi marta aylanishi ro`y beradi. Moddaning issiqlik nurlanishi jism haroratiga bog`liq (moddaning isiganlik darajasiga).

Jismga tushayotgan issiqlik nurlanishi energiyasi jism tomonidan yutilishi, undan aks ettirilishi, yoki u orqali o`tib ketishi mumkin. Unga tushgan nurli energiyani to`liq yutadigan jism mutlaq qora jism (MQJ) deb ataladi. Qayd etish lozimki, ushbu haroratda MQJ mumkin maksimal miqdordagi energiyani yutadi va tarqatadi.

Jismning o`z nurlanish oqimi zichligiga uning nur chiqarish imkoniyati deb aytiladi. Bu nurlarish parametri to`lqinlar uzunligining elementar uchastkasi dλ me`yorida o`z nurlanish oqimining spektral zichligi yoki jismning spektral nur tarqatish imkoniyati deb nomlanadi. MQJning nur tarqatish imkoniyati haroratga bog`liq ravishda Stefan-Bolsman qonuniga bo`ysunadi:

$$E_0 = \sigma_0 \cdot T^4 = c_0 \cdot \left(\frac{T}{100}\right)^4, \qquad (2.31)$$

bu yerda $\sigma_0 = 5{,}67 \cdot 10^{-8}$ Vt / ($m^2 \cdot K^4$) – Stefan - Bolsman doimiysi;

$C_0 = 5{,}67$ Vt / ($m^2 \cdot K^4$) – mutlaq qora jismning nurlanish koeffitsienti;

T – mutlaq qora jism yuzasining harorati, K.

Tabiatda mutlaq qora jismlarning o`zi mavjud emas. Nurlanish spektri mutlaq qora jism spektriga o`xshash bo`lgan, hamda nurlanish oqimining spectral zichligi (E_Λ) mutlaq qora jism spectral zichligi ($E_{0,\Lambda}$) dan bir xil ulush ε_λ ni tashkil etgan jism kul rang jism deb nomlanadi.

$$\frac{E_\lambda}{E_{0,\lambda}} = \varepsilon_\lambda = const, \qquad (2.32)$$

bu yerda ε_λ – spektral qoralik darajasi.

So`nggi ifoda integrasiyalanganidan keyin butun nurldanish spektri bo`yicha ($0 \le \lambda \le \infty$) quyidagini olamiz

$$\frac{E}{E_0} = \varepsilon, \qquad (2.33)$$

bu yerda E – kul rang jismning nur chiqarish imkoniyati;

E_0 - MQJning nur chiqarish imkoniyati;

ε – kul rang jism qoraligining integral darajasi yoki qoralik darajasi.

Qoralik darajasi – jismning fizik xossalari, uning harorati va g`adir-budurligiga bog`liq ravishda eksperimentlar (tajribalar) yordamida aniqlanadigan kattalik, ma`lumotnomada keltirilgan [2].

Kulrang jismning o`z nurlanish oqimi zichligini hisob-kitob qilish (nur tarqatish imkoniyati) uchun mo`ljallangan ifoda:

$$E = \varepsilon \cdot E_0 = \varepsilon \cdot \sigma_0 \cdot T^4 = \varepsilon \cdot c_0 \cdot \left(\frac{T}{100}\right)^4 = c \cdot \left(\frac{T}{100}\right)^4, \qquad (2.34)$$

bu yerda $c = \varepsilon \cdot c_0$ – kulrang jismning nurlanish koeffitsienti, Vt / ($m^2 \cdot K^4$);

T – jism harorati, K.

Nur o`tkazadigan shaffof muhit bilan ajratilgan kulrang yuzalardan tashkil topgan yopiq tizimdagi radiasion issiqlik almashinuvining hisob-kitobi bo`yicha nazariy qoidalar ilmiy adabiyotlarda batafsil keltirilgan [5, 6].

Ikki kul rang yuzadan iborat bo`lib, diatermik muhit bilan ajratilgan yopiq tizimning natijaviy nurlanish oqimi quyidagi formula bo`yicha hisoblab topiladi

$$Q_{w,1} = \varepsilon_{np} \cdot \sigma_0 \cdot \left(T_2^4 - T_1^4\right) \cdot \varphi_{21} \cdot F_2; \qquad (2.35)$$

yoki

$$Q_{w,1} = c_0 \cdot \left[\left(\frac{T_2}{100}\right)^4 - \left(\frac{T_1}{100}\right)^4\right] \cdot \varphi_{21} \cdot F_2, \qquad (2.36)$$

bu yerda T - issiqlik almashinuvining mutlaq harorat yuzalari, K;

F - issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2;

φ_{12} va φ_{21} – mos ravishda birinchi jismdan ikkinchisiga va ikkinchi jismdan birinchisiga burchak nurlanish koeffitsientlari;

ε_{pr} - ikki jismdan iborat tizimdagi keltirilgan qoralik darajasi;

$c_{pr} = \sigma_0 \cdot \varepsilon_{pr}$ – ikki jismdan iborat tizimda keltirilgan nurlanish koeffitsienti.

Ikki kulrang jismdan iborat bo`lgan radiasion issiqlik almashinuvining yopiq tizimidagi keltirilgan qoralik darajasi va keltirilgan nurlanish koeffitsienti quyidagi formulalar bo`yicha hisoblab topiladi

$$\varepsilon_{np} = \frac{1}{1 + \left(\frac{1}{\varepsilon_1} - 1\right)\varphi_{12} + \left(\frac{1}{\varepsilon_2} - 1\right)\varphi_{21}}; \qquad (2.37)$$

$$c_{np} = \varepsilon_{np} \cdot c_0 = \frac{1}{\frac{1}{c_0} + \left(\frac{1}{c_1} - \frac{1}{c_0}\right)\varphi_{12} + \left(\frac{1}{c_2} - \frac{1}{c_0}\right)\varphi_{21}}, \qquad (2.38)$$

bu yerda $c_1 = \varepsilon_1 \cdot c_0$ va $c_2 = \varepsilon_2 \cdot c_0$.

Ikki yuzadan tashkil topgan tizimning nurlanishining burchak koeffitsientlarini burchak koeffitsientlari xossalaridan foydalanib topish qulay:

a) yopiqlik xossasi

$$\sum_{k=1}^{n} \varphi_{ik} = 1; \qquad (2.39)$$

b) birgalik (o`xshashlik) xossasi

$$\varphi_{ik} \cdot F_i = \varphi_{ki} \cdot F_k; \qquad (2.40)$$

c) qavariqsizlik xossasi (yassi va qavariq yuzalar uchun)

$$\varphi_{ii} = 0. \qquad (2.41)$$

Ikki jismdan iborat bo`lgan yopiq radiasion issiqlik almashinuv tizimi uchun, quyidagi tenglama to`g`ri spravedlivo ravenstvo

$$Q_{w,2} = - Q_{w,1}. \qquad (2.42)$$

2.34-masala. Ikki trubadan iborat bo`lgan tizimning keltirilgan qoralik darajasi aniqlansin, bunda tashqi diametri $d_1$ = 90 mm bo`lgan bir truba ichki diametri d_2 = 180 mm bo`lgan boshqa trubaning ichida joylashgan. Trubalarning qoralik darajasi bir xil va 0,75 ga teng.

Yechim: Ichki trubaning tashqi yuzasini F_1, tashki trubaning ichki yuzasini esa - F_2 orqali belgilaymiz. Keltirilgan qoralik darajasini quyidagi formula bo`yicha

topamiz

$$\varepsilon_{np} = \frac{1}{1+\left(\frac{1}{\varepsilon_1}-1\right)\cdot\varphi_{12}+\left(\frac{1}{\varepsilon_2}-1\right)\cdot\varphi_{21}}.$$

Ichki truba uchun burchak koeffitsienti $\varphi_{12} = 1$. Tashqi truba uchun nurlanishning burchak koeffitsienti f_{21} ni quyidagi formula bo`yicha hisoblab topamiz

$$\varphi_{21} = \varphi_{12}\cdot\frac{F_1}{F_2} = \frac{d_1}{d_2} = \frac{90}{180} = 0{,}5;$$

$$F_1 = \pi \cdot d_1 \cdot \ell, \qquad F_2 = \pi \cdot d_2 \cdot \ell;$$

$$\varepsilon_{np} = \frac{1}{1+\left(\frac{1}{0{,}75}-1\right)\cdot 1+\left(\frac{1}{0{,}75}-1\right)\cdot 0{,}5} = 0{,}667.$$

Javob: $\varepsilon_{pr} = 0{,}667$.

2.35-masala. Ikki yassi yuza issiqlik almashinuvidagi nurlanish orqali chiqadigan natijaviy issiqlik oqimining zichligi aniqlansin, bunda bir yuza harorati 1000 °S, uning qoralik darajasi 0,7 va boshqa yuza harorati 800 °S, uning qoralik darajasi esa 0,5.

Yechim: Nurlanish orqali chiqadigan natijaviy issiqlik oqimining zichligi quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi

$$q_{w2} = \varepsilon_{np}\sigma_0\left(T_2^4 - T_1^4\right).$$

Keltirilgan qoralik darajasi

$$\varepsilon_{np} = \frac{1}{1+\left(\frac{1}{\varepsilon_1}-1\right)\cdot\varphi_{12}+\left(\frac{1}{\varepsilon_2}-1\right)\cdot\varphi_{21}}.$$

YAssi yuzalar uchun $\varphi_{21} = \varphi_{12} = 1$.

$$\varepsilon_{np} = \frac{1}{\frac{1}{\varepsilon_1} + \frac{1}{\varepsilon_2} - 1} = \frac{1}{\frac{1}{0,7} + \frac{1}{0,5} - 1} \approx 0,4118;$$

$$q_{w2} = 0,4118 \cdot 5,67 \cdot 10^{-8} \cdot [(1000 + 273)^4 - (800 + 273)^4] =$$
$$= 30366,75 \text{ Vt / m}^2.$$

Javob: $q_{w2} = 30366,75$ Vt / m^2.

2.36-masala. Agar devor harorati 120 °S, havo harorati esa 40 °S ga teng bo`lsa, bir soatda qozon obmurovkasining 1 m vertikal yuzasi qancha issiqlik yo`qotadi? Bunda konvektiv issiqlik berish koeffitsienti 5,5 Vt / (m^2 · K) ga teng. Qoralik darajasi obmurovki kotla 0,82.

Yechim: Nurlanish bilan issiqlik oqimining zichligi

$$q_л = \varepsilon_{np} \sigma_0 \left(T_2^4 - T_1^4\right).$$

Nurlanish burchak koeffitsientlari xossalaridan foydalanamiz:

$\varepsilon_{pr} = \varepsilon_1$, chunki $F_1 << F_2$;

$$q_l = 0,82 \cdot 5,67 \cdot 10^{-8} (393^4 - 313^4) = 662,84 \text{ Vt / m}^2.$$

Konveksiya issiqlik oqimining zichligi

$$q_k = \alpha \cdot \Delta T = 5,5 \cdot (393 - 313) = 440 \text{ Vt / m}^2.$$

Konveksiya va nurlanish issiqlik oqimining umumiy zichligi

$$q = q_l + q_k = 662{,}84 + 440 = 1102{,}84 \text{ Vt/m}^2.$$

Obmurovkaning 1 m^2 yuzasi bir soat davomida quyidagicha issiqlik yo`qotadi

$$Q_\tau = Q \cdot \tau = q \cdot F \cdot \tau = 1102{,}84 \cdot 1 \cdot 3600 = 3{,}97 \text{ MDj}.$$

Javob: $Q_\tau = 3{,}97$ MDj.

2.37-masala. Agar tashqi diametri 0,1 m bo`lgan quvur bir tarafi 0,5 m bo`lgan g`isht kvadrat kanal markazidan o`tsa, tizimning keltirilgan qoralik darajasi aniqlansin. Trubaning qoralik darajasi 0,72. Kanal devorlari qoralik darajasi 0,85.

Javob: $\varepsilon_{pr} = 0{,}706$.

2.38-masala. Katta hajmli xonadan izolyasiyalanmagan po`lat truba o`tgan bo`lib, u bo`ylab qaynoq suv oqib o`tadi. Trubaning tashqi diametri 150 mm. Truba tashqi devorining harorati 170 °S. Xona devorlari harorati 20 °S. Trubaning po`lat yuzasi uchun nurlanish koeffitsienti 4,5 Vt / ($m^2 \cdot K^4$). Bir pogon metr trubadan nurlanish orqali yo`qotiladigan issiqlik miqdori aniqlansin.

Javob: $q_\ell = 660{,}42$ Vt / m.

2.39-masala. Po`lat yombi bo`lagi elektropech ichida qizdiriladi. Pech ichki yuzasining harorati 800 °S, qoralik darajasi 0,82. Brusok yuzasining harorati 350 °S, qoralik darajasi 0,65. Zagotovka pech podida yotadi. Brusokning nur tarqatish maydoni pech nur tarqatish maydonidan 4 marta kichik. Pech devorlaridan brusok yuzasiga tushadigan natijaviy nur oqimi zichligi aniqlansin.

Javob: q = 41810 Vt / m^2.

2.40-masala. Agar issiqlik nurlanish zichligi 21000 Vt / m^2, yuza harorati esa 700 °S bo`lsa, yuzaning qoralik darajasi nimaga teng?

Javob: $\varepsilon = 0{,}413$.

2.41-masala. Agar truba yuzasining harorati 220 °S, qoralik darajasi 0,85 bo`lsa, tashqi diametri 0,12 m bo`lgan, uzunligi 1 m li bug` o`tkazgichdan

nurlanish orqali issiqlik yo`qotishlari aniqlansin. Atrof muhit harorati 17°S.

Javob: q_ℓ = 944 Vt / m.

2.42-masala. Mutlaq qora jismning o`z nurlanish oqimi zichligi qanday haroratda 1 kVt / $m^2$ ga teng bo`ladi?

Javob: T = 91 °S.

2.43-masala. Diametri 0,1 m bo`lgan bug` o`tkazgich yuzasidan nurlanish orqali issiqlik oqimining zichligi aniqlansin. Harorat stenki paroprovoda 427 °S, qoralik darajasi 0,9. Atrof muhit harorati 27 °S.

Javob: q = 11840 Vt / m^2.

2.44-masala. Agar qattiq jism yuzasi harorati 127 °S dan 327 °S gacha ko`tarilsa, uning nurlantirish imkoniyati necha marotaba ortadi.

Javob: 5 marotaba.

2.5. Issiqlik almashgich apparatlari

Rekuperativ issiqlik almashgichning issiqlik hisobi uchun ikkita asosiy tenglamadan foydalanadilar - issiqlik muvozanati tenglamasi va issiqlik uzatish tenglamasi. Issiqlik almashinish apparatidagi issiqlik yo`qotilishlarini hisobga olmaganda issiqlik muvozanatining tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega

$$Q_1 = Q_2, \qquad (2.43)$$

bu yerda Q_1 – qaynoq issiqlik tashuvchi tomonidan vaqt birligi davomida beriladigan issiqlik miqdori, Vt;

Q_2 – sovuq issiqlik tashuvchi tomonidan vaqt birligi davomida olinadigan issiqlik miqdori, Vt.

YOyilgan ko`rinishda issiqlik muvozanatining tenglamasini quyidagi ko`rinishda yozib olish mumkin:

a) bir fazali issiqlik tashuvchilar uchun

$$Q = G_1 \cdot c_{p1} \cdot (t'_1 - t''_1) = G_2 \cdot c_{p2} \cdot (t''_2 - t'_2); \qquad (2.44)$$

b) qaynoq issiqlik tashuvchining agregat holati o`zgarishida (qaynoq issiqlik tashuvchi - quruq to`yingan suv bug`i)

$$Q = G_1 \cdot r_1 = G_2 \cdot c_{p2} \cdot (t''_2 - t'_2); \qquad (2.45)$$

bu yerda G_1 va G_2 – qaynoq va sovuq issiqlik tashuvchilarning yalpi (massasiga ko`ra) sarflari, kg / i;

c_{p1} va c_{p2} - qaynoq va sovuq issiqlik tashuvchilarning solishtirma izobarali yalpi issiqlik sig`imlari, Dj / (kg · K);

t'_1 va t''_1- qaynoq issiqlik tashuvchining issiqlik almashgichga kirish va undan chiqishdagi harorati,°S;

t'_2 va t''_2- issiqlik almashgichga kirish va chiqish joyidagi sovuq g`oldagi issiqlik tashuvchi harorati,°S.

Issiqlik tashuvchilarning sarflari uzilmaslik yoki yaxlitlik tenglamasiga ko`ra hisoblab topiladi

$$G = \rho \cdot \overline{w} \cdot f, \qquad (2.46)$$

bu yerda ρ – issiqlik tashuvchi zichligi, kg / m^3;

$\overline{w}$ - issiqlik tashuvchining o`rtacha tezligi, m / i;

f - issiqlik tashuvchi o`tishi uchun kanal ko`ndalang kesimi maydoni, m^2.

O`rtacha haroratli issiqlik tashuvchining zichligi va solishtirma issiqlik sig`imini ma`lumotnoma [2] bo`yicha topiladi

$$t = \frac{t' - t''}{2}, \qquad (2.47)$$

bu yerda t′ va t″ - issiqlik almashuv apparatiga kirish va undan chiqishdagi issiqliq

tashuvchi harorati,°S.

Agar masala shartiga ko`ra issiqlik almashgich apparati chiqishida issiqlik tashuvchining harorati berilmagan bo`lib, balki aniqlanishi talab etilsa, izchil (qadamma - qadam) yaqinlashishlar uslubi qo`llanadi. Masalan, issiqlik almashgichga kirishdagi qaynoq issiqlik tashuvchining harorati berilgan $t'_1$, issiqlik almashuv apparati chiqishidagi ana shu issiqlik tashuvchi haroratini $t''_1$ esa aniqlash talab etiladi. Buning uchun ma`lumotnomadan [2] zichlik va solishtirma issiqlik sig`imi $c_{p1}$ ni kirishdagi haroratga $t'_1$ ko`ra topamiz.

So`ng issiqlik muvozanati tenglamasidan chiqishdagi issiqlik tashuvchi haroratini aniqlaymiz

$$t_1'' = t_1' - \frac{Q}{G_1 \cdot c_{p1}}. \qquad (2.48)$$

t''_1 ni bilib, qaynoq issiqlik tashuvchi o`rtacha haroratini hisoblab topamiz va $\rho$ va $c_{p1}$ qiymatlariga aniqlik kiritamiz. Agar zichlik va solishtirma issiqlik sig`imining yangi topilgan qiymatlari orasidagi farq 5% dan kichik bo`lsa, hisob-kitob tugallanadi, aks holda issiqlik muvozanati tenglamasidan harorat $t''_1$ ga yana bir marta aniqlik kiritilib, ma`lumot jadvallaridan ρ va c_{p1} qiymatlarini topish talab etiladi.

Issiqlik muvozanatining bir fazali issiqlik tashuvchilar uchun tenglamasini quyidagi ko`rinishda yozib olish mumkin

$$W_1 \cdot \delta t_1 = W_2 \cdot \delta t_2 \text{ yoki } \delta t_2/\delta t_1 = W_1/W_2, \qquad (2.49)$$

bu yerda $W_1 = G_1 \cdot c_{p1}$ va $W_2 = G_2 \cdot c_{p2}$ - qaynoq va sovuq issiqlik tashuvchilarning sarf issiqlik sig`imlari (suv ekvivalentlari);

$\delta t_1 = (t'_1 - t''_1)$ va $\delta t_2 = (t''_2 - t'_2)$ - qaynoq va sovuq issiqlik tashuvchilarning issiqliq almashgich apparatidagi harorat o`zgarishi.

Issiqlik almashinuv yuzasi bo`ylab issiqlik tashuvchilar harorati eksponensial qonun asosida o`zgaradi (2.2, a – rasm va 2.2, b - rasm). Bunda suv

ekvivalentlari va issiqlik almashinuvi yuzasi bo`ylab harorat o`zgarishlari o`rtasidagi bog`liqlik teskari proporsional bo`ladi:

agar $W_1 > W_2$ bo`lsa, unda $\delta t_1 < \delta t_2$;

agar $W_1 < W_2$ bo`lsa, unda $\delta t_1 > \delta t_2$.

Issiqlik tashuvchilar (2.2, b-rasm) tokka qarshi sxema bo`yicha harakatlanganida, issiqlik tashuvchilar haroratining o`zgarish egriliklari bo`rtikligi katta suv ekvivalenti, ya`ni harorati kamroq o`zgaradigan issiqlik tashuvchi tomonga qaratilgan bo`ladi.

Agar isituvchi issiqlik tashuvchi bo`lib to`yingan suv bug`i kelsa, u holda issiqlik uzatish jarayonida uning harorati o`zgarmaydi va ushbu bosimdagi to`yinish haroratiga teng bo`ladi

$$t'_1 = t''_1 = t_n. \qquad (2.50)$$

Rekuperativ issiqlik almashinish apparatida issiqlik uzatish tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega

$$Q = k \cdot \overline{\Delta t} \cdot F, \qquad (2.51)$$

bu yerda k - issiqlik uzatish koeffitsienti, Vt / (m · K);

$\overline{\Delta t}$ - issiq va sovuq issiqlik tashuvchilar orasidagi o`rtacha haroratlar farqi (o`rtacha harorat napori),°S;

F - issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2;

r – bug` hosil bo`lishining yashirin issiqligi, Dj / kg.

Issiqlik uzatish koeffitsienti yassi devor uchun issiqlik uzatish formulalari bo`yicha hisoblab topiladi, chunki issiqlik almashtirgichlar trubkalari devori juda yupqa bo`ladi [5,6]

$$k = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_2}}, \qquad (2.52)$$

bu yerda $\delta = 0{,}5 \cdot (d_{tash} - d_{ich})$ - truba devorining qalinligi, m;

λ - devorning issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt / (m · K);

α_1 va α_2 - qaynoq issiqlik tashuvchidan devorga va devordan sovuq issiqlik tashuvchiga issiqlik berish koeffitsientlari, Vt / (m^2 · K).

Issiqlik berish koeffsientlari kriterial formulalar bo`yicha hisoblab topiladi.

Issiqlik tashuvchilarning to`g`ri oqadigan va qarama - qarshi oqadigan harakatlanish sxemalari uchun o`rtacha haroratlari farqi quyidagi formulalarga ko`ra hisoblab topiladi:

$$\overline{\Delta t_a} = \frac{\Delta t_{max} + \Delta t_{min}}{2}, \qquad \text{agar } \Delta t_{max} / \Delta t_{min} \le 2 \qquad (2.53)$$

yoki

$$\overline{\Delta t_л} = \frac{\Delta t_{max} - \Delta t_{min}}{\ln \frac{\Delta t_{max}}{\Delta t_{min}}}, \qquad \text{agar } \Delta t_{max} / \Delta t_{min} > 2 \qquad (2.54)$$

bu yerda Δt_{max} va Δt_{min} – issiqlik tashuvchilar haroratidagi maksimal va minimal farqlar (qar. 2.2., a - rasm va 2.2., b - rasm);

Δt_a – o`rtacha arifmetik haroratlar farqi; $\Delta t_l$ – o`rtacha logarifmik haroratlar farqi.

Issiqlik tashuvchilarning murakkab harakatlanishida o`rtacha harorat farqining hisob - kitobida oqimga qarshi harakat uchun harorat grafigi t = f(F) qurilib, va $\overline{\Delta t}$ ni murakkab oqishda issiqlik almashinuvining xususiyatlarini hisobga olgan $\varepsilon_{\Delta t}$ tuzatish koeffitsientiga ko`paytiradilar. Bunda, agar bu narsa oldindan berilmagan bo`lsa, talaba mustaqil ravishda [2] ilovada keltirilgan issiqlik tashuvchilarning kesishma yoki murakkab harakatlanishi sxemalaridan birini qabul qilib, rasmga ko`ra $\varepsilon_{\Delta t} = f(P, R)$ ni aniqlaydi.



2.2 a-rasm. Issiqlik tashuvchilarning oqim bo`ylab harakatlanish sxemasida ularning suv ekvivalentlari nisbatiga bog`liq ravishda qaynoq va sovuq issiqlik tashuvchilar haroratining issiqlik almashinish yuzasi bo`ylab o`zgarishi



2.2 b-rasm. Issiqlik tashuvchilarning oqimga qarshi harakatlanish sxemasida ularning suv ekvivalentlari nisbatiga bog`liq ravishda qaynoq va sovuq issiqlik tashuvchilar haroratining issiqlik almashinish yuzasi bo`ylab o`zgarishi

2.45-masala. Agar transformator moyining harorati issiqlik almashtirgichga kirishda $t'_1 = 45$ °S, chiqishida $t''_1 = 35$ °S, moy sarfi 16000 kg / s bo`lsa, suvli moy sovutgich chiqishidagi sovituvchi suvning harorati aniqlansin. Sovituvchi suvning kirishdagi harorati 15 °S, suv sarfi 26000 kg / s.

Yechim: Issiqlik muvozanati tenglamasi

$$Q = G_1 \cdot c_{p1} \cdot (t'_1 - t''_1) = G_2 \cdot c_{p2} \cdot (t''_2 - t'_2).$$

Transformator moyining o`rtacha haroratida uning solishtirma issiqlik sig`imi [2]

$$t_1 = \frac{t_1' + t_1''}{2} = \frac{45 + 35}{2} = 40\ °S;$$

C_{p1} = 1,788 kDj / (kg · °S).

Issiq tashuvchidan (moy) sovuq tashuvchiga (suv) uzatiladigan issiqlik oqimi Q

$$Q = \frac{16000}{3600} \cdot 1{,}788 \cdot 10^3 \cdot (45 - 35) = 79467\ Vt.$$

CHiqishdagi sovituvchi suv haroratining hisobini izchil (oldinma - ketin) yaqinlashishlar uslubi bilan izlaymiz.

t'_2 = 15 °S [2] c_{p2} = 4,187 kDj / (kg · °S) haroratda suvning solishtirma issiqlik sig`imi.

Issiqlik muvozanati tenglamasidan noma`lum harorat t''_2 ni ifodalaymiz:

$$t_2'' = t_2' + \frac{Q}{G_2 \cdot c_{p2}};$$

$$t_2'' = 15 + \frac{79467}{\frac{26000}{3600} \cdot 4{,}187 \cdot 10^3} = 17{,}63\ °S.$$

Sovuq issiqlik tashuvchining o`rtacha harorati

$$t_2 = \frac{t_2' + t_2''}{2} = \frac{15 + 17{,}63}{2} = 16{,}31\ °S.$$

c_{p2} ga aniqlik kiritamiz.

t_2 = 16,3 °S bo`lganida c_{p2} = 4,1854 kDj / (kg ·°S).

Solishtirma issiqlik sig`imining yangi topilgan $s_{r2}$ qiymatining avvalgi iterasiya qiymatidan farqi 0,038 % ni tashkil etadi. Shunday qilib, uzil - kesil quyidagiga ega bo`lamiz:

t_2 = 16,31 °S; t''_2 = 17,63 °S.

Javob: t''_2 = 17,63 °S.

2.46-masala. Issiqlik almashinuv apparatida suv 4 kg / i sarfi bilan 25 °S haroratdan 205 °S gacha haroratga qadar qiziydi. Bunda gazlar 430 °S dan 260 °S gacha soviydilar. Agar teskari oqish, issiqlik uzatish koeffitsienti k = 42 Vt / (m^2 · K) bo`lsa, issiqlik almashtirgich to`g`ri oqish va teskari oqish sxemalari bo`yicha ulanganidagi uning yuzasi aniqlansin.

Yechim: Issiqlik tashuvchilarning to`g`ri yo`nalish bo`ylab harakatlanish sxemasi.



O`rtacha haroratdagi suvning issiqlik sig`imi [2]:

$$t_2 = 0,5\ (t'_2 + t''_2) = 115\ °S;$$

$$c_{p2} = 4,2415\ kDj / (kg \cdot °S).$$

Suvning gazlardan olgan issiqlik miqdori

$$Q = G_2 \cdot c_{p2} \cdot (t''_2 - t'_2) = 4 \cdot 4{,}2415 \cdot 10^3 \cdot (205 - 25) = 3053{,}88 \text{ kVt.}$$

Issiqlik almashgichdagi damning maksimal harorati

$$\Delta t_{max} = t'_1 - t'_2 = 430 - 25 = 405 \text{ °S.}$$

Issiqlik almashgichdagi damning minimal harorati

$$\Delta t_{min} = t''_1 - t''_2 = 260 - 205 = 55 \text{ °S.}$$

$$\frac{\Delta t_{max}}{\Delta t_{min}} = \frac{405}{55} = 7{,}36 > 2.$$

O`rtacha logarifmik harorat napori

$$\overline{\Delta t_л} = \frac{\Delta t_{max} - \Delta t_{min}}{\ln \frac{\Delta t_{max}}{\Delta t_{min}}} = \frac{405 - 55}{\ln \frac{405}{55}} = 175{,}3 \text{ °S.}$$

Issiqlik almashgich yuzasi maydonini issiqlik uzatish tenglamasidan topamiz:

$$Q = k \cdot \overline{\Delta t} \cdot F;$$

$$F_{прям} = \frac{Q}{k \cdot \overline{\Delta t_л}} = \frac{3053{,}88 \cdot 10^3}{42 \cdot 175{,}3} = 414{,}78 \ m^2.$$

Oqimga qarshi (teskari) harakatlanish sxemasi



$\Delta t_{max} = t''_1 - t'_2 = 260 - 25 = 235$ °S;

$\Delta t_{min} = t'_1 - t''_2 = 430 - 205 = 225$ °S;

$$\frac{\Delta t_{max}}{\Delta t_{min}} = \frac{235}{225} = 1{,}04 < 2.$$

Damning o`rtacha arifmetik haroratini hisoblab topamiz.

$$\overline{\Delta t_a} = \frac{1}{2} \cdot (\Delta t_{max} + \Delta t_{min}) = \frac{1}{2} \cdot (235 + 225) = 230\,°S.$$

$$F_{прох} \frac{Q}{k \cdot \overline{\Delta t_a}} = \frac{3053{,}88 \cdot 10^3}{42 \cdot 230} = 316{,}13\ m^2.$$

Javob: $F_{to`gri\ oqish} = 414{,}78$ m^2; $F_{teskari\ oqish} = 316{,}13$ m^2.

2.47-masala. Issiqlik almashgichda 0,1 MPa atmosfera bosimida bug` kondensasiyalanib, kondensat to`yinish haroratida chiqib ketadi. Sovituvchi suv $t'_2 = 20$ °S dan $t''_2 = 95$ °S gacha qiziydi. Issiqlik almashgich yuzasi F = 8 m^2. Issiqlik uzatish koeffitsienti k = 900 Vt / (m^2 · K) qaynoq issiqlik tashuvchining sarfi aniqlansin.

Yechim: Bunda isituvchi issiqlik tashuvchi bo`lib suv bug`i keladi. Issiqlik muvozanati tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega

$$Q = G_1 \cdot r_1 = G_2 \cdot c_{p2} \cdot (t''_2 - t'_2)$$

$$G_1 = \frac{Q}{r_1}.$$

Issiqlik uzatish tenglamasiga ko`ra

$$Q = k \cdot \overline{\Delta t} \cdot F;$$

$$G_1 = \frac{k \cdot \overline{\Delta t} \cdot F}{r_1}.$$

p_n = 0,1 MPa bo`lganida [1;2] ma`lumotnomaga ko`ra:

t_n = 99,63 °S; r_1 = 2256,8 kDj / kg.

Issiqlik tashuvchilarning to`g`ri yo`nalish bo`ylab harakatlanish sxemasi.



Issiqlik almashgichdagi damning maksimal harorati

$\Delta t_{max} = t_n - t'_2$ = 99,63 - 20 = 79,63 °S.

Issiqlik almashgichdagi oqimning minimal harorati

$\Delta t_{min} = t_n - t''_2$ = 99,63 - 95 = 4,63 °S.

$$\frac{\Delta t_{max}}{\Delta t_{min}} = \frac{79,63}{4,63} = 17,2 > 2,$$

